

341
q-46.

S.X. GAYUPOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S.X.GAYUPOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

O'quv qo'llanma

-14039/6-



Toshkent
«Yangi chirchiq book»
2023

Gayupova S. "Umumiy pedagogika" o'quv qo'llanma. T.: "Yangi chirchiq book", 2023. 128 b.

Mazkur darslik "Umumiy pedagogika" fanidan sirtqi bo'limning barcha ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

"Umumiy pedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonida uning nazariyasi va tarixini, asosiy kategoriyalarini hamda pedagogik muammolarini tahlil qila olishni o'rganadilar. Talabalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga doir zamonaviy pedagogik bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarning zarur hajmini, o'qituvchi shaxsda namoyon bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashlari ko'zda tutiladi. Shuningdek, talabalar oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilar sifatida ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini, uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarining o'ziga xos jihatlari angalay olishlari, shunga muvofiq kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish layoqatini o'zlashtirishlari lozim.

Tag'rizchilar:

Sh.Botirova

CHDPU dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc).

M.Qodirova

O'zDSMI dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

© Gayupova S.

© «Yangi chirchiq book» nashriyoti, 2023.

ISBN 978-9943-9167-2-2

SO'Z BOSHI

Bugungi kunda ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, tizim oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayoni har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual salohiyat egalari, ma'nan pok va axloqli pedagog kadrlarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Oila, maktab, mahalla hamkorligi Konsepsiyasi, "Oila kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7-fevraldagi Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, "Oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi ko'plab qarorlarining barchasida yosh avlod ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Jamiyatimizning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun u yuksak intellektual potensialga ega bo'lishi kerak. Ilmoyi tarbiya, ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga yangicha kreativ yondashishni kuchaytirish zarurati ana shundan kelib chiqadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik tamoyillarni teran anglab yetish va pedagogik mahorat sirlari bilan qurollantirish bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lishlariga erishish bugungi kunda bo'lajak mutaxassislariga qo'yiladigan talablardan biridir.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashning o'zi ham muhim ta'limiy jarayon bo'lishi bilan birga u ushbu jarayonni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishda pedagogika fani oldida muhim vazifalarni qo'yadi. Shu sababli eng

avvalo, zamonaviy texnologiyalar bilan qurallantirilgan ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil eta biladigan, uning yuksak mahorat bilan boshqarilishini ta'minlay oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik bilimlar bilan qurallantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayoniga kasbiy nuqtai nazardan yo'naltirish katta mas'uliyatni taqozo etadi. Bu jarayonda umumiy va mutaxassislik, jumladan, pedagogika fanlarini zamonaviy talablarga muvofiq samarali o'qitish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchi, pedagoglarni tayyorlash, ularni kasbiy shakllantirish, sohaviy bilim, ko'nikma, malakalarini izchil rivojlantirish, kasbiy kompetentlik sifatlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish barcha davrlarda bo'lgani kabi dolzarb muammo ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu talabni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida "Umumiy pedagogika" fani bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish murakkab, mas'uliyatli jarayon bo'lib, unda pedagogika sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, komil inson, malakali mutaxassisni tayyorlash borasidagi ijtimoiy ehtiyoj hamda shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadigan ustuvor tamoyillarni inobatga olish zarur. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'lim bakalavriat yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanmada pedagogika fanini o'qitishga qo'yilayotgan talablar imkon qadar to'la qamrab olish maqsad qilingan.

1-MAVZU: Pedagogika fan sifatida. Didaktika asoslari. Ta'lim -tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati

REJA:

1. Pedagogika fanining predmeti va vazifalari.
2. Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
3. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari va ularning o'zaro bog'liqligi.
4. Pedagogik fanlar tizimi.
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Didaktika o'qitish va ta'lim nazariyasi sifatida.
7. O'qitish jarayonining mohiyati.
8. Didaktika, uning asosiy kategoriyalari.

Tayanch so'zlar: pedagogika, rivojlanish, tizim, ta'lim - tarbiya, didaktika, kategoriya, o'qitish, jarayon, mohiyat.

Pedagogika fanining predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati — uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois, didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi». didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatini tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorlagarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi.

Maxsus ta'lim — o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim, shuningdek, turli darajadagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'ra, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyog'arashini tarkib topitirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalaniish yo'lida olib borgan harakatlari tarbiya g'oyalarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bolalarga trikichilik o'rikazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish

jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois, o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatar ko'zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokrit, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois, tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o'rinda shakllangan feodal tuzumda pedagogik g'oyalar feodallar man'atini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g'oyalar yetakchi o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G'arbda cherkov, Sharqda esa, masjidlar)ning roli osha borib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g'oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ'ib etishning din pestivolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko'zga tashlangan bo'lsa-da, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko'lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko'rish ehtiyoji ilmiy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o'rin olgan Sharq Uyg'onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi — o'rta asrlar davrida sodir bo'ldi. Sharqda buyuk allomalar — Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, G'arbda esa, T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, antik dunyo va burjuaziya davri

yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o'zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi.

Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo'lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishini tasdiqladi. Mazkur davrda ilg'or, progressiv pedagogik g'oyalar ilgari surildi. Aksariyat g'oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror toptirish borasidagi qarash o'z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o'rinda pedagogika fani rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan mutafakkirlar: G'arbda — Ya.A.Komenskiy, D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbar, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiyalar shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi qarashlarni yanada boyitdilar hamda ta'lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tatbiq etish, o'qitishni yangi tizim (tizhil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g'oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho'ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta'lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (gormonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

Pedagogika kontekstlik ma'nosiga ega bo'lib o'rganuvchining turli xil faoliyatlarida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Amerikalik pedagog olim Bernstein fikriga ko'ra, pedagogika bir insonning ongli faoliyati boshqa bir insonni o'rganishini ta'minlaydi. Uning fikricha, pedagogika shaxsning yangi jihatlarini kashf qilish, fikrlarni bog'lash, bilim, amaliyot va shaxs fikrini ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, u o'qituvchining tashkilotchiligi,

boshqaruvchanligi, talaba fikrini tahlil qila olishi va talabaga nisbatan o'qituvchi mas'uliyatini ko'rsatuvchi hisoblanadi.¹

Alexander's fikriga ko'ra, pedagogika ham faoliyat ham tahlil turi hisoblanadi. Pedagogika o'qituvchilarning fikrlashi, ularning e'tiqodi, munosabati, bilimi, talabalarni o'qitish va o'rganish jarayonida dars rejasini tushunishi, shuningdek, ularni o'qitish jarayonidagi ta'siridir va pedagogika ijtimoiy, madaniy, siyosiy jarayonlar bilan bog'langan.²

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo'li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e'tirof etilib, «Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o'timishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish» davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e'tibor yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'nalirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlarning mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rinda tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak

¹ Pedagogiy. Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries 13-6er

² Pedagogiy. Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries 13-6er

ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqbol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy-talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
 2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
 3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
 4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
 5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
 6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
 7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
 8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
 9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan otilar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.
- Pedagogikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi.** Pedagogika nima? U nima bilan shug'ullanadi? Nimalarni tadqiq qiladi?, degan savollar pedagogika fanini o'rganishga kirishgan odamning aqlini band etadi. Pedagogikaga oid darsliklarda, qomuslarda pedagogikaning bahs tushunchasi turlicha, ayrim hollarda bir-biridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Masalan, pedagogika — tarbiya haqidagi fan; pedagogika — o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan; pedagogika — umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan va hokazo.

Bu ta'riflardan voz kechmagan holda ta'lim-tarbiya muassasalarida shunga muvofiq shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatni pedagogikaning bahsi deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlarini uchun tarbiya jarayoniga ta'sir etishni nazarda tutadi.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlarini uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida olingan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi muammolarning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tidi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Jamiyat taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraveradi.

Agar ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida bolalar kattalarning mehnat jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsalar, keyinchalik ibtidoiy formatsiyalarning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim bolalarni (qabila boshliqlarining, diniy marosimlarni boshqaradigan shaxslarning bolalarini) diniy marosimlarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumidayoq bolalarni tabaqalashirish an'anasi paydo bo'ldi.

Quldorlik davriga kelib, bu an'ana ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, qullarning bolalari og'ir ishlarni bajarishga o'rgatildi. Quldorlarning bolalari esa, qullar usidan hukmronlik qilishga tayyor landi. Shu bois, ularga saboq berish zaruriyati tug'ildi. Bu esa, o'qitishga maxsus, shu sohani biladigan odamlarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu hol maktab va o'qituvchilarga bo'lgan zaruratni

kelitirib chiqardi. Ijtimoiy formatsiyalarning keyingi ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan yangi-yangi o'quv yurtlarining barpo etilishiga olib keldi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida o'ttirilgan tajribalar to'planganidan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo, pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ba'zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. "Alpomish", "To'maris" kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomulmulukning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoynoma", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk", Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari o'dob-axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadog'at kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Sugrot, Aftotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning "Buyuk didaktika" asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. O'n sakkizinchi asrga kelib, O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul

Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlardan fanda umumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimoqda.

Pedagogika fanining asosiy tushunchalari (kategoriyalari) va o'zaro bog'liqliklari.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyalari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Faning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xati – harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvori va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib topdirish jarayoni.

Ta'lim—o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurallantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot— ta'lim – tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish— shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogik fanlar tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois, yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika— maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi — maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi— boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

4. Korreksion (maxsus) pedagogika— rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohaları kiradi. Ular quyidagilardir:

4.1. Surdopedagogika va surdopsixologiya— eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

4.2. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

4.3. Tiflopedagogika va tiflopsixologiya— ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

4.4. Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi— nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo'lgan bolalar (ko'r, sog'ov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

5. Metodika — xususiy fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

6. Pedagogika tarixi — ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

7. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

8. Pedagogik mahorat — bo'lajak o'quvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

9. Ta'limni boshqarish — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

10. Ijtimoiy pedagogika — ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tug'gan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa — shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni hal etishga imkon beradi.

2. Iqtisod — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya — ijtimoiy munosabatlarning mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika — shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlarni, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika — shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya — o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiyena — o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya — shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib topirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix — pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalari kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik — o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib topirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar — shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon

bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Didaktika o'qitish va ta'lim nazariyasi sifatida

Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi.

Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularining mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatini tashkil etishi zarur.

Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'ekti deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajriba berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchi — o'quvchi, o'quvchi — o'quv materiali, o'quvchi — boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganish ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat — ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetining mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimini o'zlashtirishlarini ta'minlagina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'yekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'yekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'rifiash va tushuntirish;
- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayon L uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini taxil qilish va ta'rifiash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga

muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

Didaktika pedagogikaning "Nima uchun o'qitish kerak", "Nimani o'qitish kerak", "Qanday o'qitish kerak", "Qanday hajmda o'qitish kerak", "Kimlarni o'qitish kerak", "Qayerda o'qitish kerak", "Nimadan foydalanib o'qitish kerak" kabi savollarga javob izlaydi.

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda, bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, mulqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa handa o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika — muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tabdiq etilgan

didaktik qonuniyatlari, o'sha predmetning umumiy jihatlari qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlari namoyon bo'ladi.³

O'qitish jarayonining mohiyati. Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqld qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» «o'rgatuvchi», «didasko» esa — «o'rganuvchi» ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Bu tushunchani buyuk chech pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670-yillar) «Buyuk didaktika» (1657-yil) nomi mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy «didaktika bu faqat ta'limning emas, balki tarbiyalash ham», deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

Didaktika, uning asosiy kategoriyalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mayjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) falsafiy tushunchalar;
- 2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan

tushunchalar.

Didaktika uchun «umumiy va alohida», «mohiyati va hodisa», «qarama-qarshilik», «bog'liqlik» kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida «tizim», «tuzilma», «vazifa», «element» kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) ta'lim — o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

2) dars — bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruh bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish — idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashtirib, boyib borish jarayoni;

4) ta'lim jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

5) o'quv fani — ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) ta'lim mazmuni — davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada «idrok etish», «o'zlashtirish», «mahorat», «rivojlanish» va boshqalar (psixologiya) hamda «boshqarish», «qayta aloqa» (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

³Perti Kansanen & Matti MeriDidactic relation in the teaching-studying-learning processAbstract. 2-6

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmog'da.

1) bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazilar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

2) bilim olish — idrok etish, o'rganish, masbu qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko'nikma — olingan bilimlarga asosanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

4) malaka — ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

5) ta'lim — o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyog'arashlarini tashviylashga yo'naltirilgan jarayon;

6) ta'lim metodlari — ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

7) ta'lim mazmuni — shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyog'arashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayotda mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta'lim vositalari — ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komp'yuter va boshqalar) va sub'yektiv (o'qituvchining nuqti, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) ta'lim jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) ta'lim mazmuni — davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta'lim maqsadi — (o'qish, bilim olish maqsadi) — ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) ta'lim natijasi — (ta'lim mahsuli) — ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta'limni boshqarish — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda isiqbollarini belgilash;

14) ta'lim tizimi — yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

Didaktik tizim. Zamonaviy didaktik tizim. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» — yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) — ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlariga ajratadilar:

1) an'anaviy;

2) progressiv;

3) zamonaviy.

Ta'lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gertbartning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An'anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gertbart (1776—1841-yillar) nomi bilan bog'liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqtai nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi.

I.F.Gertbart ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat: o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedosentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asming 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratadi.

D.Dyuning nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi fan o'rganish jarayonini rag'batlantirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901 — 1977-yillar) rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi XX asming 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalari amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Psixolog L.S.Vigotskiy (1896—1934-yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan «Yaqin rivojlanish zonasi» g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishi e'tirof etilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga majburiyat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Didaktika" tushunchasini ta'riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va ob'yekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyillari qaysilar?
6. Zamonaviy didaktik tizimning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
7. Pedagogik paradigma nima? Ta'limning asosiy paradigmalarini aytilib bering.

II. "PEDAGOGIKA TARIXI"

2 – MAVZU: PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA.

REJA:

1. Pedagogika tarixi predmeti va vazifalari.
2. Tarixiy yodgorliklarda inson tarbiyasi to'g'risidagi qarashlar.
3. "Avesto" inson to'g'risidagi eng qadimiy yozma yodgorlik.
4. O'rxun – Enasoy yodgorliklari va ularning ahamiyatlari.

Tayanch so'zlar: Pedagogika tarixi, yodgorliklar, "Avesto", millat, fahr.

Pedagogika tarixi predmeti va vazifalari. O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorifunun yaratgan. Zotan, o'zbek madaniyati, chunonchi shargona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti uzoq moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi. Uning tarbiyaviy g'oyalari o'tgan har bir tarixiy davr va bosqichlar davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan holda tomir otdi.

O'zbekistonda pedagogik talakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini shartli ravishda, asosan, quyidagi uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

Oktyabr to'ntarilishigacha bo'lgan davr (1917 yilgacha).

Sho'ro tuzumi davri (1917 yildan 1991 yilgacha).

Mustaqillik davri (1991 yildan keyin).

I-davr Zardushtiylik dinining chuqur ildiz o'tishi va shu dinning muqaddas kitobi -«Avesto»ning Markaziy Osiyoga, Eronga yoyilishi bilan boshlanadi. VI-VII asrlar Markaziy Osiyoda Islom dinining yoyilishi bilan xarakterlanadi.

VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan begiyos rivojlanib bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin ortdi. O'sha davrda Al-Xorazmiy, Al-Kindiy, Zakariya ar-Roziya, Al-Beruniy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Az-Zamaxshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi.

XV-XVI asrlarga kelib turkiy xalqlar Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulq'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi.

Shunday qilib, o'tmishdagi progressiv pedagoglar va atloqli mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini o'rganish pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatining o'rishiga imkon berdi.

Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga tayangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmun va metodlarini o'rganish haqida bahs yuritadi. O'tmishning pedagogik tizimlaridagi ilg'or va progressiv fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi.

Demak, pedagogika tarixi ijtimoiy fandr. U tarixiy pedagogik hodisalarga davr talabi asosida yondashadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo'lganligini ochib beradi, ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ko'rsatib beradi.

Pedagogika tarixini o'rganish o'qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki ularning pedagogik mahoratini egallashiga ham yordam beradi, chunki ushbu fan o'tmishning ta'lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Tarixiy yodgorliklarda inson tarbiyasi to'g'risidagi qarashlar.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Partiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o'lkalarda turli qabila va elatlar yashagan. Bular hozirgi o'zbek xalqining «ildizi» hisoblangan sak-massagetlar, so'g'dlar, korazmiylar, baxtarlar, chochlik va parkanaliklar kabi qabila va elatlar edi. Keyinchalik ular bir-birlari bilan birlashib, yagona hududlar tashkil etishgan.

Bu taraqqiyot davri eramizdan oldingi IX- VI asrlarda paydo bo'lgan Ahmoniyalar, keyinchalik, eramizdan avvalgi III asr o'ralarida tarkib topgan Yunon-Baqtriya davlati, eramizning I asrida Kushonlar, V asrda Eftaliylar, so'ngira Sosoniylar va nihoyat Turk hqonligi davrlarini o'z ichiga oladi.

Biz qadimgi madaniy-pedagogik boyliklarimizni o'rganishda quyidagi uch asosiy manbaga tayanib ish ko'ramiz:

Xalq og'zaki ijodi materiallari.

Buyuk adib va allomalarning ijodiy merosi.

Arxeologik topilmalar.

“Avesto” inson to'g'risidagi eng qadimiy yozma yodgorlik.

The Avesta /ə'vestə/ is the primary collection of sacred texts of the ancient Aryan religion known as Zoroastrianism, composed in the otherwise unrecorded Avestan language. The Avesta texts fall into several different categories, arranged either by dialect, or by usage. The principal text in the liturgical group is the Yasna, which takes its name from the Yasna ceremony, Zoroastrianism's primary act of worship, and at which the Yasna text is recited. The most important portion of the Yasna texts are the five Gathas, consisting of seventeen hymns attributed to Zoroaster himself. These hymns, together with five other short Old Avestan texts that are also part of the Yasna, are in the Old (or 'Gathic') Avestan language. The remainder of the Yasna's texts are in Younger Avestan, which is not only from a later stage of the language, but also from a different geographic region.⁴

Avesto o'zida dastlabki Zardushtiylik dini nomi bilan mashhur bo'lgan muqaddas matnlar to'plamidan iborat. Kitob o'sha davr lahchasida yozilgan. “Avesto” matnlari ma'lum tartibda joylashgan bo'lib, u murojaat mazmuniga ega. Avestoning asosiy qismi Yasna deb yuritiladi, Yasna atamasi marosim nomidan olingan. Zardushtiylikka bag'ishlangan madhiyalardan iborat. Yasaning asosi 5 qismdan iborat bo'lib, ularning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Yasaning tarkibiy qismi bo'lgan eng qadimgi Avesto, Avesto tilida yozilgan. Yasaning matni parchalarida Kichik Avesto bayon qilingan ma'lumotlar orqali nafaqat til haqida, balki o'sha hududga doir muhim geografik ma'lumotlar aks etgan.

E'ramizdan oldingi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi qildodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunida juda ko'plab afsona, rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi - «Avesto»ga kiritilgan. «Avesto»ning o'zi kim tomonidan yaratilgani to'g'risida turli taxminlar mavjud. Jumladan, sharqshunos olim Ye.E. Bertelsgning fikricha, 1278 yilda Rayd-Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan «Zardushtnoma» dostonida «Avesto» kitobi Avesto va Zendani Zardusht dunyoga keltirgani, uning tug'ilishi va keyingi hayoti haqidagi kitob ekanligi bayon etiladi.

Ushbu kitobda inson shaxsining takomiliga oid ma'rifiy fikrlarning ma'lum bir tizimi ifodalangan. Hatto uni tabiiy, ilmiy, ma'rifiy fikrlar to'plangan dastlabki pedagogik asar deyish mumkin. Kitob 1200 bobdan iborat bo'lib, 12 ming oshlangan mol terisiga olinn harflar bilan bitilgan, deyiladi. Ushbu kitob Iskandar hulkosigacha Istaxr shahrida saqlangan. Keyinchalik Iskandar ushbu kitobni Yunonistonga olib ketib, kerakli joyini olib qolganini yoqib yuborgan.

Zardusht - «Sariq to'n egasi», degan ma'noni bildiradi.

Ushbu kitob bizga 2 nusxada yetib kelgan:

Birinchisi: Duolar to'plamidan iborat bo'lib, «Vendedat sede», ya'ni «Pok Vendedat» deb ataladi. Bu kitobga «Yasna»lar, «Visperad» ham kiritilib, yaxlit tarzda shakllangan.

Ikkinchisi: Birinchisi kabi «Vendedat», «Yasna» «Visperad»lar qatori ularning izohli tarjimai - «Zand» kiritilgan.

«Avesto» ikkinchi variantiga ko'ra quyidagi qismlardan iborat:

1. «Vendedat». U 22 bobdan iborat bo'lib, asosan, Axuramazda bilan Zardushtning savol-javoblari shaklida yozilgan. Bu bob yomon ruhlar - devlarni yengish voqealari, gunohlardan pok bo'lish qoidalari va mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi.

2. «Visperad» 24 bobdan iborat. Butun borliq Ollohniki. Ibadat yo'sinlaridan iborat.

3. «Yasna» 72 bobdan iborat bo'lib, diniy ibodatlar paytida, qurbonlik marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolar madhi va boshqalardan iborat.

4. «Yashtlar». U zardushtiylik ma'budalarini madh etuvchi 22

⁴<https://en.wikipedia.org/wiki/Avesta>

qo'shiqni o'z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto Quyosh, Oy, Ardivisura, Olov va boshqa xudo hamda ma'budlar sharafiga yig'ilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

Demak, "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan miloddan avvalgi 529-548 yillar orasida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik Janubiy Eron otashparastlik dinining ulamo-kohlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan.

Zardusht ta'limoti tobora xalqqa kuchliroq ta'sir o'tkazayotganini sezgan muholiflar unga qarshi kurashga kirishadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht bir guruh tarafdorlari bilan Xorazmdan Eronga qochib o'tadi va o'sha yerda o'z ta'limotini uzil-kesil shakllantiradi.

Zardusht shoh Gushaspning vaziri Farashashtaning qizi Xavoviga uylanadi va undan Istavatra, Urvatatnara, Xvarechitra ismli uch o'g'il va Freni, Griti, Porigista ismli uch qiz ko'radi.

U yagona xudo Axuramazdani kashf etadi va yakka xudo g'oyasini ilgari suradi.

Firdavsiy va Beruniy tasviriha, Zardusht birinchi bo'lib o'z dinini Eron shohi Vistaspgga asoslab ko'rsatib, uning e'tiborini qozonadi. Shahrstonxonning «Eron» kitobida Vistaspg farmoniga ko'ra, Zardusht 1200 bobdan iborat pandnoma, «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan, deyiladi.

Vistaspg o'z ukasi Arjaspni yenggach, Eronu Turon yagona zardushtiylik diniga bo'ysunadi. So'ng Zardusht xohishi va Vistaspg farmoniga ko'ra, barcha shaharlarda otashkada – ibodatxonalar quriladi. Ularning eng kattasi Balxda edi.

Zardusht 77 yoshida o'zining dushmani, ko'pxudolik tarafdori **Brataraxsh** tomonidan o'ldiriladi. Lekin uning ta'limoti Islom ta'limoti tarqalguncha Ajam o'lkalarida asosiy din sifatida saqlanib qoldi.

Nima uchun o'sha davrlarda zardushtlik – yakka xudolik g'oyasiga alohida e'tibor berilgan? Chunki bu g'oya tufayli ko'p g'oyaviy, siyosiy, madaniy, axloqiy masalalar tartibga solindi,

muqur g'oya keyinchalik ham fan-madaniyatning rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Grek olimi Pliniy «Avesto»ni 2 million baytdan iborat degan edi. Bu kitobdan qadimgi xalqlar marosimi, urf-odatlari, e'tiqodi, ibodatlari to'g'risida yagona syujetlar, Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxiipa, Ardivisura, Zaxxok, Faridun, Bahrom singari ko'plab mitologik obrazlar, rivoyatlar bilan bog'liq atamalar to'g'risida ma'lumot olamiz.

«Avesto»da tibbiyot to'g'risida fikrlar ilgari suriladi:

1. Tashrex (anatomiya) va mizon (fiziolgiya).
2. Bemorlikning oldini olish yo'llari.
3. Kasalliklar haqidagi ma'lumotlar.
4. Bemorlarni davolash yo'llari.
5. Tabiblar axloqi va tabobatga oid qonun-qoidalar haqida fikr yuritiladi.

Bu kitobda, shuningdek, ekologik masalalar va ularni hal etish yo'llari aytiladi. Axlal, iflos narsalar ko'mish yo'li bilan saqlanishi. O'tash, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan yo'qotish. Kimyoviy yo'l: kul, sirtka, sharob, turli giyohlarni tutatish yo'li bilan saqlash.

Jarrohlikda asl sharo'ba nasha qo'shib berib, behush qilish orqali operatsiya qilingan, Bugroning tabiblar qasamyodi haqidagi fikridan bir necha asr ilgari «Avesto»da tabiblarning maxsus qasamnoma keltirilgan, shuningdek, tabobat ramzi – ilon zahar sochayotgan idish – jon tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Umuman, olganda qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» eng qadimgi noyob xazinadir. Unda o'lamdagi barcha – diniy, dunyoviy, tabiiy, tibbiy fanlar bo'yicha teran mulohazalar mavjud.

O'rxun – Enasoy yodgorliklari va ularning ahamiyatlari.

Although Huns are said to have belonged to the tribes of Altaic language group, there were other tribal unions speaking different languages as well. And among them were Turkic groups of people on whose history is based. Migration of Turkic and Mongolian group of people to the west started from the earliest time. This can be proved by the study of western researchers on resemblance in

facial features of Mongolian and Sakas tribes, who occupied Ural region, thus facial characteristics of two similar, assimilated groups of people⁵

Urxun-Enasoy qabr toshlarida yozilishicha, Xun qabilalari Oltoy tillar guruhi tegishli bo'lgan o'z tillarini boshqa qabilalar bilan mulogotga kirishishning asosiy vositasi deb bilishgan. Ular Turk qabilalarining tamadduni manbasi bo'lib hisoblanadi. Turk va Mo'g'ul qabilalarining G'arbga ko'chish dastlabki davrlari aks etgan. Bu Ural mintaqasini mo'g'ul va sak qabilalari tomonidan zabt etilgan, G'arb tadqiqotchilari izlanishlariga ko'ra bu xalqlarning tashqi korinishidagi o'xshashliklariga asos bo'lgan.

Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular yangi davr kishisini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bular "O'rxun-Enasoy yodgorliklari", «Irtq yozuvlari» (ta'bimoma) kabildir. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turk-runiy yozuvda bitilgan O'rxun-Enasoy bitiklari VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi.

Toshga o'yib yozilgan O'rxun-Enasoy yodgorliklari dastlab Enasoy havzasida, so'ngra Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi bo'yidan topilib, daniyalik olim Vil'gel'm Tomson 1893 yilda bu yozuvlarni birinchi bo'lib o'qigan. O'zbekistonda esa Oybek, O.Sharofuddinov, N.Mallaev, A.Qayumov, N.Rahmonovlar mazkur yozuvlar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bordilar va ularning ta'lim-tarbiyadagi o'rini yoritib berdilar.

Turk xogonligining tashkil topishi. Bitiktoshlar va ularda ilgari surilgan fikrlar

Ma'lumki, VI asr o'rtalariga kelib, Oltoy, Yetisuv, Markaziy Osiyo hududlarida turk xogonligi tashkil topdi. Bu xogonlik G'arbda Vizantiya, Janubda Eron, Hindiston, Sharqda Xitoy bilan chegaradosh edi. Xogonlik 604 yilda Sharqiy va G'arbiy xogonlikka

ajratilgan. Turk xogonligi asosan 3 kishi: Bilga Xogon (Mo'g'uliyon), Enkarda Kul Tegin va vazir To'nyuquqlar qo'lida markazlashgan edi.

Bitiktoshlarda o'z vatani mustaqilligi uchun kurash, xalqni asordan olib chiqish, ularning birligini ta'minlash xogonlar bo'lyon, Issemi, Eltarish, Eltarishning o'g'illari Bilga xogon va Ishtarbooshi Kul Tegin, ma'naviy otalari To'nyuquq zimmasiga tushgani hikoya qilinadi. Kul Tegin Eltarish xogonining kichik o'g'li, u 731 yilda 47 yoshda vafot etdi. 732 yili o'natilgan Bitik toshi Kul Teginning akasi Bilga xogon tilidan hikoya qilinadi. Ushbu bitikda Kul Tegin ta'riflanadi.

Ikkinchi bitiktosh Eltarish xogonining katta o'g'li, Kul Teginning akasi Bilga xogon sharafiga 735 yili o'natilgan. Bilga xogon o'z yaqinlari tomonidan 734 yilda 50 yoshida zaharlab o'ldirilgan. Bu bitik ham Yo'llig' Tegin tomonidan yozilgan. Uning xogonligi davridagi ittifoqlik, adolat haqida fikrlar aytiladi.

Uchinchi bitik 717-718 yillarda To'nyuquq hayotligida unga atab yozilgan. Uning insoniy fazilatlarini ta'riflagan. «Irtq bitig» (Ta'bimoma) XIX asr oxirida Sharqiy Turkistonning Dunxuan degan joyidan topilgan. Ushbu yodnoma haqida N.Rahmonov tomonidan tuzilgan «Qadimiy hikmatlar» kitobidagi manbalarga qarab mulohaza yuritimiz. Asar 100 betdan iborat bo'lib, moniy jamoasidagi Isig Sangun va Ite Chuq ismli ikki bola uchun bitilgan. Bu bitikda nima yaxshiyu, nima yomonligi hikoya qilinadi, uning zaminida axloqiy talablar yotadi hamda bu talablar qushlar va hayvonlar obrazi orqali aks ettiriladi: Voqealar tush ta'biri tarzida bayon qilingan.

Nazorat savollari:

1. Pedagogika tarixi fanini predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. Pedagogika tarixi fanining metodologiyasi nimaga asoslanadi?
3. Buyuk olimon olimi Xerler: «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda nimani nazarda tutgan?
4. «Pedagogika tarixi» fanini o'rganish bo'lajak o'qituvchiga qanday imkoniyat yaratib beradi?

⁵ Saurylov B. Verbolat. *Turkic Races in Southern Part of Kazakhstan: Current State and Future.*

International Journal of Central Asian Studies Volume 17, 2013 http://www.iued.or.kr/pdf/journal/17vol17_7.pdf

5. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixiy merosimizni o'rganish haqida qanday g'oyalarni ilgari suradi?

III. IJTIMOY PEDAGOGIKA

3-Mavzu: Ijtimoiy pedagogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida

REJA:

1. Ijtimoiy pedagogikaning predmeti va ob'ekti.
2. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
3. Bola ijtimoiylashuvining asosiy institutlari.
4. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
5. Bolaning rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar.

Tayanch so'zlar: Ijtimoiy, bolaning rivojlanishi, ijtimoiylashuv, ijtimoiy institut, din, madaniyat oila, ta'lim, tarbiya, biologik va ijtimoiy omillar, me'yor.

"Ijtimoiy" tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa, bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi

Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig'i masalalarini o'rtaga qo'yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashining umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning "ijtimoiy tarbiya falsafasi" bo'limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi va bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarni uchratsak bo'ladi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi, tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi. Falsafa, ijtimoiy tarbiya nazariya va uslubiyatining boshqa muammolarini o'rganadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya-jamiat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji faoliyat yuritishi, shakllanishi qonuniyatlari haqidagi fan ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o'rgana turib ijtimoiy bitimlar sohalarining bir qator ma'lumotlari: (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta'lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi.


Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o'rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi qonuniyatlari, etnik stereotiplarini o'rganuvchi bilim sohasi. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiya va psixologiya inson hayotining yosh davrlarga bo'linishi, etnik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar, etnosda u yoki bu yoshdagi yoki jinsdagi insonlarning tug'gan o'rmini belgilaydigan omillar ijtimoiylashuv va tarbiyaning etnik va qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanadi.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda etnografiya va etnopsixologiya ma'lumotlari ham inobatga olinadi. Etnik xususiyatlarni tarbiyaning aniq vazifa va mazmunini aniqlashda, tarbiya tizimini tashkil qilishda inobatga olish lozim. Shu bilan birga, umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos tushadigan etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalq doirasida ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ijtimoiylashuv va tarbiyaning ba'zi bir etnik xususiyatlarini muayyan doirada jadallashtirish va o'rinni to'ldirish ham lozimdir.

Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy psixologiya insonlarni ijtimoiy guruhlariga qo'shilishlari faktini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yuritish-turish

qonuniyatlari, shuningdek bu guruhlarning psixologik ta'rifiyatini ham o'rganadi. Yosh psixologiyasi inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlari shuningdek, shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va vektimologiya (jinyatshunoslik) muammolarini o'rgana turib, ijtimoiy tarbiya uslubiyat va psixologiyasini ishlab chiqa turib ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

Bola ijtimoiylashuvining asosiy institutlari



Jamiat o'zining qurilishiga ko'ra turli xildagi o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlarga ega.

Ijtimoiy institut – insonlar jamiyatdagi hayotining tarixan murakkab shaklda tashkil etilganligi va tartibga solinganligini o'rganadi. Xuddi ana shular orqali bola jamiyat me'yorlari va axloq qoidalarini o'zlashtiradi. Shunday ijtimoiy institutlarni ijtimoiylashgan institut deb nomlash mumkin va bularga oila, ta'lim, madaniyat va din kabilar kiradi.

Oila – ijtimoiylashishning yetakchi instituti, bu orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, axloqiy mohirlik va ko'nikmani oladi, ma'lum baho va eng yuksak maqsad qilishni o'zlashtiradi, hayotida nima kerak bo'lsa shu jamiyadan oladi.

Ta'lim – ta'lim orqali bola bu jamiyatga hukmronlik qilayotganlarni baholay oladi. Ta'limda bilim olish jarayonida, u nafakat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Madaniyat – bu shunday ijtimoiy institutki, insoniyat o'zi uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni tanlaydigan maskan. Bolaga uning shakllanish jarayonida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri tegadi.

Din – ijtimoiy institut sifatida murakkab ijtimoiy ko'rinishga ega. Bir butunicha tizimda alohida tasavvur, sezgi, ibodat harakatlari, tashkilotlar va sig'inuvchilarning turli xil birlashmalari mavjud. Doimiy axloqiy qadriyatlar, islom, xristian (yaqinlarga sevgi va g'amxo'rlik, halollik, chidamlilik, yaxshilik, mehri-muruvvatlilik va b), diniy bayram va an'analari, diniy musiqa va boshqalar bolaning jamiyatdagi axloqiy me'yorlari ta'sir etishi mumkin.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi.

Tashqi omillarga insonni o'rnatgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek, bolalarda muayyan hisslarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi.

Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatining har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (otana, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiy, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlaniruvchi kuchlari bo'lib, bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas, har bir shaxsda ular shunday ehambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Bolaning rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi.

Irsiyat deganda – bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga o'tilishi tushuniladi. Nasldan bola inson organizmi, inson asab tizimi, inson miyasi va sezgi a'zolarini oladi.

Ota-onalardan bolalarga tana tuzilishi xususiyatlari, soch rangi, ko'z, teri rangi kabi bir insonni boshqa insondan farqlaydigan tashqi omillar o'tadi. Nasldan asab tizimining ba'zi bir xususiyatlari ham o'tadi. Bular asosida asab faoliyatining ma'lum bir turi rivojlanadi.

Inson rivojlanishida intellektual xislatlarning o'tishi masalasi juda muhimdir. Filolog va psixologlar tadqiqotlariga ko'ra, qobiliyatlar nasldan o'tmaydi, faqat qobiliyatlarni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar hisoblangan qobiliyat nishonalari o'tadi.

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim. Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik).

Ota-onalar alkogolizm i va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatining buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda.


Shaxs sotsializatsiyasining makro (grekcha macros «katta»), mezo – (mesos «o'rta») va mikro (micros «kichik») omillarini farqlaydilar.

Mikroomillar - yaqinligina makomni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqinligina muhitini, ya'ni bola o'sadigan muhitini sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

Mezoomillar – etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalq) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Makroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va b.

Bola sotsializatsiyasiga omillarning ta'siri chizmasi



Sotsium (yaqin muhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin o'zlashtiradi. Boshida u (bola), asosan, oilada rivojlanadi, so'ng yangi muhitlarni o'zlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o'riqlar davrasi, diskotekalar va h.k. Yosh o'tgan sari bola tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy muhit «tuhud» toborra kengayib boradi.

Muhit – bu nafakat ko'cha, uy va buyumlar.

Muhit – bu yana o'ziga xos munosabat va qoidalar o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi. Shuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir olib keladi, ma'lum bir darajada unga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga, muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablari qo'yadi.

Muhitning insonga bo'lgan munosabati shu bilan aniqlanadiki, uning o'zini tutishi qanchalik muhit ishonchiga to'g'ri keladi. Insonning o'zini tutishi ko'p holda jamiyatda u qanday o'rinni egallashi bilan aniqlanadi.

Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi.

IV. KORREKSION PEDAGOGIKA

4-MAVZU: Korreksion (maxsus) pedagogika

REJA:


1. Korreksion pedagogika.
2. Maqsad va vazifalari.
3. Pedagogik faoliyatida ularning ahamiyati.
4. Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining asosiy yo'nalishlari.
5. Rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omil. Tibbiy ziddiyat (konflikt)larning o'ziga xos xususiyati haqida.
6. Bola rivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari.

Tayanch so'zlar: korreksiya, defektologiya, psixik kamchilik, individual, profilaktika, anomal bola, anomal, korreksion ish, nuqson, diagnostika qilish, ruhiy zo'rqiish, ziddiyat.

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishda turi nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus - nuqson, kamchilik, logos - fan. ta'limot) - rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman ehtirol etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:



Korreksion pedagogika (defektologiya) sohalari

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimni yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi to'g'ri kildab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mayjud kamchilik) faoliyat o'rnatidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik ehtirol-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini

ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishda turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differentsiysiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa, uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi. Psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa, aqliy rivojlanish imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehnibonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhida yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofida — bolaning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyojkorlik bilan munosabarda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'zini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion — tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini

samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalar-ning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio») — o'rinni to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rinni to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas») — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funktsiyalarning o'rni to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto») - moslashish) - anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois, murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Oliyaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarining asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish - murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va muhoyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi texnikni o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibati asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarning maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'quvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar

taqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxiti pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emosional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatihatakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishdagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos — noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi.

Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog'lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o'ringa qo'yilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib ketlardilar, ular bolalarni sinchiklab ko'rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular ota-onalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa, uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi 4-5 asrlar).

Yevropada o'rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etilib, psixik kasalliklari bo'lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar.

Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha Yevropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiiy kasallarga nisbatan insonparvarlik vondashuvi ilk bor fransuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745-1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turrlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv 18 asr oxirlari 19 asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini ilgari Genrix Pestalotssi (1746—1827-yillar) asoslagan bo'lsada, huroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvvatlamadi. I.G.Pestalotssi «aqli zaiflar» bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning inkomni yetgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775-1838 yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini oshiq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856-1926 yillar) katta hissa qo'shdi.

Fransuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois, ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asoschilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektining buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari suradi.

Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emosional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.

I.Petr, I.I.Yekaterinalar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

19 asr oxiri 20 asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi.

Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

1918-yilda maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yili Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika (defektologiya)ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan.

Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o'quv muassasalari (ko'zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar,

aqli zaiflar uchun yordamechi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni (1997-yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish va davolash maxsus (ixtisoslashtirilgan) ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilishi ta'kidlab o'tilgan.

O'lgan asrning 60-70-yillarida respublikada korreksion pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublika olimi defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etib, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jismoniy yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi. Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlarini ko'rsatadilar: Sensor xislati yetishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparati va sensomotorikasining funksiyasi buzilgan). Psixik rivojlanishi

ortda qolgan bolalar. Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar. Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi). Aqli zaif bolalar (debillik, imbet sillik, idiotsiya darajasidagi oligofrenlar). Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar. N.Usanova anomol bolalarni quyidagi guruhlariga ajratishni taklif etadi:

Organik buzilishlar sababli rivojlanishda chetlanish bo'lgan bolalar.

Funksional yetuk emasligi sababli rivojlanishda kamchilik bo'lgan bolalar.

Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishda kamchiliklar bo'lgan bolalar. Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishda nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlariga ajratishni taklif etadi:

Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar).

Nutqi buzilgan bolalar, sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan), tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar, rivojlanishda kompleks buzilish bo'lgan bolalar, anomol bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rmini to'ldirishga imkon beuvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomol bolalarning ma'lum guruhli faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlari ularga esa, davolash- sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Bola rivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. Rivojlanishda kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi

ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomol bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatlil ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir. Anomol bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion- rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada mutaxassislarining quyidagi tamoyillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlar bilan tanishishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatlari va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi. Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasini» - bolalarning o'qitishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi. Sifatli-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijaning emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lining ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma- ketligi,

maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi. Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differentsiyalashirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishda bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajragan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktil asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlari defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

Subbat metodi. Subbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emosional-irodaviy sifatlari, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nuqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa subbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi.

Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

Rasmlarini o'rganish metodi. Rasmlar bolani o'rganishda muhim differensial-diaagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiyinaladilar, ular syujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashtirildi. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqol ifodalamaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya drafunksiyalari ekanligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

PROQni bolalar rivojlanishini ko'rsatuvchi anomaliya sifatida o'rganish XX asrning 50-yillarining oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi.

Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi to'rt variantini keltiradilar:

- konstitutsional kelib chiqish;

- somatogen kelib chiqish;
- psixogen kelib chiqish;
- serebral-organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rgana olmaydilar. Faoliyatlarini tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarnaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQli bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga sher yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois, ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati — 4-5 yil).

Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati - 5 yil).

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishdagi nuqsonlarning bartaraf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta'lim 5-9 sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta'limning 1- bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur. Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ilimiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi — oligofrenopedagogika

tomonidan o'rganiladi. «Oligofreniya» (yunoncha oligos — kam va phren - aql) termini 19 asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya — bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) o'tsahg bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiadorlik davrida turli infeksiyon kasalliklari bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqalogning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmoz) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiadorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiadorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni iste'mol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Ona qornida miyasi shikastlangan bolalar.

Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994-yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rta og'ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida

metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yashilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu yerda o'qitish davlat ta'lim standartlari asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografya, tarix, tabiat, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlar ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi 4 sinfdan oq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlariga bajaradigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash, atrofdagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabiga jalb etilish holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini ota-onalar o'quvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetilganicha, darsning borishiga xalaqit qilmay sinf faoliyatida

ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyin o'quv materialining mulahoqa tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarning bevosita ishtiroklarini talab etadi.

Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish.

Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. Nutq faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funksiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi — logopediya (yunoncha logos — so'z va paidia — tarbiyalash) shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkili etilgan korreksion-logopedik choralariz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (bel torligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'rilib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmashigi, chala tug'ilish kabi holatlar sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

- tibbiy-psixologik nutqiy buzilish;
- psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

- og'zaki nutqning buzilishi;
- yozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

- nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;

- fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorfning buzilishi).

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivojlanmaganligi)ning buzilishi.

- Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.

Maktab o'quvchilarida nutqiy buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korreksion) o'qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug'ullanadi. «Logopediya» terminining yunonchadan tarjimai «to'g'ri nutqni tarbiyalash» ma'nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar — fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik cheklanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshlari og'riydi ko'ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez char-chaab qoladilar, qattiq ta'sirlanishlari, jaxllari chiqishi bilan ajralib turadilar. Ular emosional barqaror emalar, ularning kayfiyatlari tez o'zgaradi, seijaxl, agressiv, bezovia bo'ladi. Shuningdek, ularda mustik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o'tira olmaydilar,

butun dars davomida ishechanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladi, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin esa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:

Logopedik punkt o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlaridagi buzilishlarni tuzatish mavjud bo'lgan nutqiy buzilishlari natijasida kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish, nutqidagi buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash pedagog va ota-onalar o'rtasida korreksion-logopedik bilimlarni tashviqot qilish. O'quvchilar bilan logopedik punkt korreksion ishlar butun o'quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik - pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy tahminlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu yerda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi. Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish — borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirishi, inson (turk jonzo)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish, eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddati bo'ladi. Masalan, o'rta quloqning tashkil topishi. Shamollash, olingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta quloqning anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmashligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi

nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy medisina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'irishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglaydagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vazni tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabi. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirti ichimlik, gijohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra, eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlariga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog'i og'irlik - bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 dan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshitmaydi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlar va qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (subtadoshning lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlari jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» — kar) — eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsud) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda o'rtib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;
- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;
- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkilot etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi,

bulaning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatarga o'tkazish kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini mazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflomedagogika shug'ullanadi (yunoncha «tiffos» — ko'r) — korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish — ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qornida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'irishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari — to'r pardasi shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit miya shishi. Meningo ensifalit). organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor. gripp. skorlatina). Shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Ko'r tug'ilganlar.

Erta ko'r bo'lib qolganlar.

Uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda yomon ko'ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekiniigi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablari korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «tiflos» - ko'r) - korreksion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug'ullanadi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Refraksiyasi anomaliyali bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishlariga multojlik sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatonga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga

o'tkazilishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak.

Anomal refraksiyali bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishtarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berilishi zarur. Anomal refraksiyali bola 10-15 minut davomida intensiv ko'rish ishtarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan - ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differensial yondashuv asosida munosabatlarda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rni esa, qo'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv - tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi kerak.

Sinfta ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi muqaddam muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari. Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funksiyalarining

buzilishi tug'ma yoki ortirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- nerv tizimining kasallanishi (bolalar serebral paraliçli (BTSP), poliomiçli);

- tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqçligi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa nuçsonlari; unurtga pog'onasi rivojlanishidagi nuçsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuçsonlari; qo'li barmoqlarining anomol rivojlanishi; artroqripoz (tug'ma mayblik);

- ortirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliartrit; skelet kasalliklari (tuberkulyoz, suyaklardagi shishlar, osteomiçli), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdagi nuçson hisoblanadi. Bunday nuçsonlarga ega bolalarning 89 % ini serebral paraliçli bolalar tashkil etadilar. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois, bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korreksiya ham muhtoj bo'ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o'rtaçha darajada bo'lgan bolalar yurishni o'rganib olsalarda, biroq, ishonç bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining yengil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqmay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar.

1. Ziddiyatlarni stressogen faktorlar sirasiga kiritish mumkin. G.V.Ushakov yondosh stressli qayg'urishlarni uch turga bo'lishni taklif etadi:

2. Sotsial.
3. Psixologik (ruhiy).
4. Tibbiy.

Ular haqida quyida muassas to'xtalamiz.

Stresslarning birinchi turiga ijtimoiy muhida tug'iladigan shart-sharoitlar mansub bo'lib, bunday holatda insonda yuz beruvchi

ruhiy jarohat kamayadi yoki oldi olinadi. Bunda oldini olish chora-tadbirlarni soddalashtirish maqsadga muvofiq emas. Bunday ziddiyatlarni hal etish xilma-xil, turli darajali va ko'p rejali. Ma'zi ziddiyatlar tezkorlik bilan bartaraf etishga moyil, ba'zilar esa, shaxsiy va ijtimoiy kuch sarflashni talab etadi. Agar ishdagi va oiladagi ziddiyatlar tez hal etilsa, moddiy qiyinchiliklar, kamistishlar, ijtimoiy - maishiy sharoitning pastligi, ishsizlik kabilar uzoq vaqt sarflanadigan va bartaraf etilishi qiyin bo'lgan stressogen faktorlar sirasiga mansubdir.

Ruhiy zo'rqişni psixologik profilaktika qilish insonning shaxsan bosh harakatlanuvchi sub'yekt sifatida chora ko'rishni talab qiladi. Individdning o'z yashash muhiti va axloq - odobini tuzatishi ruhiy jarohatlarni oldini olishning asosini tashkil etadi. Yetakchi profilaktik tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- a) tug'ilishdan oldin va keyingi psixoprofilaktika, shaxslararo munosabatlarni tartibga keltirish, b) oilada guruhii moslikni ta'minlash, c) o'quv - tarbiyaviy jamoada moslikni vujudga keltirish, d) mehnatni ilmiy tashkil etish, e) toliqish va ortiqcha zo'rqişlarning oldini olish, f) kasbiy zararli narsalarni yo'q qilish, g) ruhiy zo'rqişlarni neytrallashtirish maqsadida psixologik tuyyorgarlik, h) zo'rqişlarni yo'q qilish.

Pedagogik shart - sharoitlar sirasiga shaxsning imtilishlarini sharoitga moslashtirish, psixologik jihatdan sog'lom muhiti yaratish, psixologik qadriyatlarini jamoa faoliyatiga tadbiiq qilish kabilarni kiritish mumkin.

Ruhiy toliqishlarning oldini olish tibbiy profilaktikaga mansub bo'lib, tibbiy stressologik bilimlarni aholi orasida, ayniqsa, o'quvchilar va pedagoglar orasida tashviiq qilishni kiritish mumkin. Nevroitik toliqishlar oldini olishning turli-tuman ilk profilaktika tizimi yaratilgan. Ularga aholi orasida yosh va jinsiiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ommaviy ruhiy-gigiyenik tadbirlarni misol qilib keltirish mumkin. Faol dam olish va hordiiq chiqarishni turlarini tanlash yuzasidan tibbiy tavsiyalar ham profilaktika turlariga kiradi. Intak va tibbiy ko'rsatma shaklidagi profilaktik tadbirlarga homilador xotin-qizlarni kuzatish. Nevropaik holaning oldini olish,

ichki oilaviy konfliktlarning oldini olishga yordamlashish va boshqalar kiradi.

Hozirgi davr pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida pedagogik konfliktologiyani ta'limning mustaqil ilmiy-tadqiqot sohasi ekanligiga doir boy fakt va kuzatish natijalari to'plandi. Pedagogik konfliktlar muammosi ilmiy bilimlar, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlarning barchasiga baravar taalluqlidir. Qayerda konflikt tushunchasi ishlatilmasa, uning sinonimi bo'lgan "qarama-qarshilik", "antagonizm" va h.k. terminlar ishlatiladi.

Sinergetik nazariyaga asoslangan holda pedagogik ilmiy tadqiqotlarda bu muammoning barcha fanlarga taalluqli ekanligini hisobga olgan holda uning turli-tuman bilim sohalarida qanday izohlanishini ko'rib chiqamiz. S.I.Ojegov lug'atida konflikt to'qnashuv, jiddiy fikrlar qarama-qarshiligi, bahs sifatida izohlanadi. (1984 y), "Falsafa qomusi lug'ati"da (1984 y) bu tushuncha leksik birliklar safidan joy olmagan bo'lib "ziddiyat" shaklida keltiriladi va qarama-qarshiliklar, tomonlar va yo'nalishtlar, hodisalar qarama-qarshiligi sifatida tushuntiriladi. "Konflikt" tushunchasi lug'atda faqatgina sinfiy qarama-qarshilik va manfaatlar to'qnashuvini anglatuvchi termin sifatida izohlangan. N.I.Kondakovning (M.,1975y) "Logika lug'ati"da qarab chiqilayotgan tushuncha yuqorida keltirilgan izohlarga to'liq mos keladi. "Konflikt" — bu qarama-qarshi tomonlar, manfaatlar, kuchlar, qarashlar, fikrlar, intilishlar to'qnashuvidir. So'ngra o'sha o'rinda konfliktni uzoy davom etadigan, og'ir oqibatlarga olib keladigan kelishmovchilik, bahslashuv ham deb tushuntiriladi. Mualliflar ijtimoiy konflikt, ziddiyatni "ijtimoiy kelishmovchiliklarning oxirgi holati" deb baholashgan. "Kichik siyosiy lug'at"da (M.,1988y) yuqoridagi ta'rif aynan keltirilgan. Va nihoyat "Estetika" lug'atida (M.,1989y) "badiiy konflikt" tushunchasi ham ana shu qabilda, hayotda yuz beradigan ziddiyatlarning san'atda aks etish sifatida ta'riflangan. "Pedagogik konflikt" tushunchasini ta'riflayotganda uning ilmiylik darajasini farqlash maqsadga muvofiqdir. Konflikt nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham diqqatga sazovordir. Uning asosiy tomonlarini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy taraqqiyot, konfliktlar va ularning hal etilishi uzviy bog'liqdir. "Konflikt" — bu taraqqiyotni, rivojlanishni, yaxshilik va yomonlikni, yaratish va yemirishni harakatga keltiruvchi va to'xtatuvchi tormozdir.

Agar tabiat, - A.Eynshteyn "fikricha, - u murakkab hamda yomonlik tashimaydigan bo'lsa, konfliktlar bo'ladigan munosabat boshqacha bo'lishi mumkin. Konfliktga boruvchi kuchlar yovuz, adolatli va xolis bo'lishi mumkin. "Konflikt nazariyasiga kirish" monografiyasi mualliflari to'g'ri ta'kidlaganlaridek, hozirgi zamonlarni konfliktlar nazariyasini yoritishda tor qobiqqa burkanib qolmaydi. Konflikt sotsial va texnik hodisa sifatida murakkab tizimlarga xosdir. Konfliktlilik va oldini ko'ra bilishdagi oqizlik — murakkab sistemalar mohiyatini tashkil etadi. Demak, pedagogika sohasida konfliktlarni tadqiq etish rivojlanishda bo'lgan pedagogik, didaktik, boshqaruv va boshqa tizimlar bilan birgalikda tahlil etilgandagina mazmunga ega bo'ladi. Ba'zi bir oqibatlarning oldindan ko'ra bilishning oqizligi kabi parametrlar asosli ravishda ta'lim-tarbiya tizimiga, maktablar, oliy o'quv yurtlari, pedagogik kodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimiga taalluqlidir.

Konfliktlar nazariyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning hamjihatlik bilan bildirgan fikrlariga ko'ra, tadqiqotlar jarayonida tug'iluvchi konfliktlarni boshqarish, o'lash mumkin. Konflikt "murakkab tizimlar uzviyligi usuli" sifatida baholanadi. U ziddiyatlashgan tomonlarning ajratilishi va qo'shilish faktori sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikki tizim orasidagi konfliktlar yangi konflikt tizimini vujudga keltiradi. Konfliktga kirishuvchi tizimlarni boshqarishda hal qiluvchi rolni zid tomonlarning bir-biri haqida axborotga qanchalik ega ekanligi o'ynaydi. Muhim gnosologik vosita sifatida tizimli misollarni keltirish mumkin, bunday modullar kattalashtirish darajasida qurilishi va eksperimental tadqiq etish imkonini berishi mumkin. Ijtimoiy hodisa va ziddiyatlar orasida normativ hujjatlar va real voqealik o'rtasidagi konflikt tipik hisoblanadi. Quyida konflikt nazariyotchilarining bir necha qarashlarini keltiramiz.

1. Konflikt – taraqqiyotning bosh immanent (tashqi, ob'yektiv) faktoridir.

2. Ko'p masshtabli konfliktlar soni oshib boradi, bunday konfliktlar qisqa muddatda hal etilishni talab etadi.

3. Ziddiyat – oqibat natijasidir. Bu konfrontatsiya emas. Bu qarama-qarshiliklarning oldini olish usuli, murakkab tizimlarni uzviylashtirish usuli.

4. Konflikt tushunchasi apparati "sifat", "samaradorlik", "jarayon", "kuch" kabi yondosh terminlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga bu terminlar bilan birga ijtimoiy, psixologik, texnik fanlarga doir tushunchalar ham qo'llaniladi.

5. Konflikt tartibni buzishi, tartibga keltirishi va yangi tartib o'rnatishi mumkin.

Hozirgi zamon konfliktlar konsepsiyasi o'z ichiga quyidagi sohalarni qamrab oladi: noosfera, biosfera, akosfera, texnosfera, jonli va jonsiz materiya. Konfliktlarni tizimiy matematik apparatdan foydalanib tadqiq qilishning ikki yo'li tavsiya qilinadi. Birinchi yo'l barcha mavjud faktorlarni hisobga olgan holda tizimlar o'zaro harakatini umumiy holda tavsif etishdan iborat. Konfliktga kirishuvchi tomonlarni tavsiflash, sabablari, mexanizmlari, boshlanishi, yakunlanishi yozib boriladi. Natijada yirik modellar yuzaga keladi, bu modellar ko'p planli natijalar bera oladi. Ikkinchi yo'l ikk qo'lga kiritilgan faktorlarni va oddiy modellarni tahlil etish yo'li bilan to'qnashuvlarning sabab va oqibatlarini baholashdir.

Konflikt zid tomonlarning konkret maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashini ifodalaydi. Qarama – qarshiliklar jarayoni mavjud umumiy qonunlar asosida rivojlanadi.

Konfliktlar muammosi keng ko'lamdagi ilmiy adabiyotlarda ochib berilgan, biroq, konfliktlar nazariyasi mualliflarining ta'kidlashlaricha, uning hamma tomonidan tan olingan, bir fikrga kelingan ta'rifi mavjud emas.

Konflikt – qarama-qarshi kurashuvchi tomonlarning oldindan aytish mumkin bo'lmagan, kutilmagan axloq – odobiga doir murakkab tizim, konfliktlar tipik bo'lish bilan birga, doim lahzali va zalvorlidir. Ilmiy – texnik progress sharoitida ergatik tizimlarda ("ergatik" – sosisum individi va texnika birligi) o'zgarishlar yuz

beradi. Konfliktning yagona bosh modelini shakllantirishning muhim omili – bu konfliktli o'zaro harakatlarda jarayonlarning asborotligidir. Pedagogik tizimdagi konfliktlarni tushunishda ijtimoiy konfliktlarning tavsif etilishi muhim o'rinni egallaydi. Tavsif etilayotgan monografiyada sotsial konfliktlarni modeldashtrishning bir varianti keltirilgan. Unda mualliflar ziddiyatga kirishuvchi tizim sifatida "funktsionerlar", "intellektuallar", "rahbarlar" harakat tizimini keltirishadi. Asosiy kurash maydoni sifatida bu har uchchala o'zaro korreksiya kirishuvchilardagi "byurokratizm" tilga olingan. Ijtimoiy konflikt uch sohada yuz beradi: 1. Individual. 2. Jamoaviy. 3. Texnik.

Agar mazkur uch soha bo'yicha hamkorlik, birlik yuz bersa, konflikt yo'qoladi. Konflikt nazariyasi bilan shug'ullanuvchi nazariyotchilarning fikricha, konfliktlarning asosiy tavsifnomasi ana shulardan iborat.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari.

a) didaktik xarakterdagi konfliktlar;

b) didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar;

c) chegaradan chiquvchi axloqiy (etik) konfliktlar.

Rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarning yosh xususiyatlari oliy maktab pedagogika kursi hamda, asosan, yosh va pedagogik psixologiya kursida bayon etib berilgan. Shuning uchun ham biz ta'limiga rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida yuz beruvchi konfliktli vaziyatlar haqidagina so'z yuritamiz. Rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarga emosional holatlarning uzoq muddatli bo'lmagan, qisqa muddatli kechishi xosdir. Agar, albatta, emosional holat chuqur, zulmkorona, qaqshatuvchi bo'lmasa.

Emosional holatning tez o'zgaruvchanligi va yuksak darajadagi moslashuvi rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchi psixikasining himoya to'sig'i vazifasini o'taydi. Biroq ruhiy zo'rqiqlarning qisqa muddat davom etishi bu yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchiga ehtiyotsizlaracha bosim o'tkazish huquqini bermaydi (hammasini osongina unutadi-ku, qabulida). Yana bir psixologik huquqat shu bilan izohlanadiki, kichik boshlang'ich maktab

yoshidagi bolalarga o'zidan kattalar himoyasiga muhtojlik, ayniqsa, o'qituvchining qo'llab – quvvatlashi xosdir. Har qanday asabiylik vaziyatida u o'qituvchiga yordamga muhtoj bo'lib termulib turadi, undan yordam qo'llab – quvvatlashini kutadi. Agar uning kutgani yuz bermasa, u qayg'u bilan yakama – yakka qoldirilsa ruhiy qo'zg'alish ham shunchalik kuchli bo'ladi. Agar o'qituvchi tomondan yordam o'rninga dakkisi eshiksa, uning ruhiyati shunchalik kuchli jarohatlanadi.

Konfliktologiya fani bo'yicha nazariy qoidalariga asoslangan holda bir necha pedagogik jihatdan ahamiyati tushuntirishlarni keltiramiz. Konfliktida qatnashuvchi tomonlar safida ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilarining barchasi ishtirok etishi mumkin. Shu jumladan, o'quvchilarning ota-onalari, metodik xizmat rahbarlari, boshqaruv apparati xodimlari ham. Yuzaga kelishi jihatidan boshlang'ich sinflarda konfliktlar kutilmaganda, oldindan rejalashtirilmagan holatda sodir bo'ladi. Bu konfliktning eng xavfli variantidir, chunki bunday paytda vaqt yetishmasligi tufayli o'qituvchi xato harakatlarga yo'l qo'yishi ehtimoli bor. Xuddi ana shunday paytda taqdiriylilik o'qituvchini yo'ldan urishi, kutilmagan to'qnashuv nihoyatda og'riqli, jarohatli bo'lishi mumkin.

To'satdan yuz beruvchi konfliktlardan tashqari xarakteri va kechishi jihatidan tipik bo'lgan ziddiyatlar ham mavjud. Bunda o'qituvchi o'z tajribasiga tayangan holda u yoki bu qadar ilgari ishlab chiqilgan ssenariy asosida ish ko'radi. Ularni yuz bergan vaziyatga bir qadar moslashtirishga to'g'ri keladi, xolos. Nihoyat, o'qituvchi ko'z oldida shunday vaziyatlar mavjud bo'lishi kerakki, bunga asosan ziddiyatli holatni yaratish va uning yordamida ta'lim-tarbiyaning olg'a siljishiga sharoit yaratish mumkin bo'lsin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasi jarayonida sodir bo'luvchi konfliktli – ziddiyatli vaziyatlarni tavsiflashdan oldin asosiy bloklar mazmuni bilan tanishtiramiz. Buning uchun bir necha savollarga javob beramiz:

- a) Rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan konfliktlar chastotasi qanday?
- b) Kimlar orasida ziddiyatlar yuz beradi?
- c) Ziddiyatli vaziyatlar qanday mazmunga ega?

d) Umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida uchraydigan konfliktli vaziyatlar oqibatlaridan ijodiy foydalanish qay ahvolda?

Kichik, o'smir, katta yoshdagi o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida yuz beruvchi stressogen konfliktlarning chastotalarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi o'quvchilar katta yoshdagilarga nisbatan ancha kamroq bunday vaziyatlarga tushadilar.

Boshlang'ich sinfni bitirgan o'quvchilarni ommaviy so'rov-nomaga tortish natijasida barcha o'quvchilar uchun doimiy bo'lgan statistik raqamlarni keltirishimiz mumkin.

So'rovnomaga to'ldirilganlarning qariyb yarmi o'qituvchilari bilan onalarida dog' bo'lib qolgan birorta ham konfliktli vaziyatni eslay olishmadi.

Studentlar esa sobiq o'qituvchilaridan o'rta maktab bo'ladigan biror bir vaziyat haqida javob berisha olmadi.

Konfliktga yo'l qo'ymasdan ishlayotgan o'qituvchilarning retrobahosi:

- birinchi o'qituvchi ideal – o'qituvchi, pedagog namunasi, unga o'xshashni butun hayotlari davomida istashadi;
- hech qanday nuqsonga ega emas, namunali o'qituvchi;
- so'zsiz namuna sifatida qabul qilishdi.
- rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarga dars bergan o'qituvchi haqida faqat yaxshi fikr bildirishdi.
- mulqat tajribali, o'z ishining ustasi.
- eng yorqin va quvonchli xotira saqlanib qolgan.
- to'rt yil davomida yetti o'qituvchi almashdi, hammasi ajoyib kishilar edi.
- men o'qituvchimning biror marta chegaradan chiqqanligini ko'rmadim.
- o'qituvchimizni sevamiz va hozirgacha eslaymiz.
- o'qituvchi onamizdek edi, uni juda sevardik.
- konfliktlar yuz bergani yo'q, o'qituvchining obro'si shu darajada yuksak ediki, uning har bir so'zi biz uchun qonun edi.
- nizolar yo'q edi, o'qituvchi o'quvchilar va ota – onalar orasida so'zsiz obro'ga ega edi.
- u farishta edi, har qanday nuqsonlardan xoli...

Ko'ramizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini retrobaholash maqsadsiz kishi qiyofasini asoslaydi, go'yoki bunday shaxs maktabda birinchi marta paydo bo'lgani kabi. Shu bilan birga baholashning asosga ega qismi diqqatni tortadi. O'quvchilarga berilgan a'lo baho ularning jarohat yetkazmasdan, ziddiyatsiz kasbiy faoliyatiga tegishli bo'lib, ular sirasiga ajoyib inson, yaxshi pedagog, bolalarga mehribon, onalardек mehribon, qoloq o'quvchilarni e'tiborsiz qoldirmaydi, o'quvchilarni do'stlashтира olgan, talabchan va adolatli, nazokatli kabi sifatlar mansub. Ideal o'quvchidan o'quvchilar ayrim hollarda nuqson ham topishdi: ko'p diqqatini o'z ust – boshiga qaratadi; uning kiyim – boshiga maftun bo'lgan ayrim o'quvchilar mashg'ulotga yaxshi diqqat qilishmasdi; ko'pincha faqat a'lochilarni maqtay, qoloq o'quvchilarga oz diqqat qaratardi, ko'pincha tutayib, baqirar edi.

Taxmin qilish mumkinki, ko'pgina nizoli to'qnashuvlar kuzatuvdan chetda qoldi. Nimadir o'quvchilar xotirasidan o'chib ketgan bo'lishi mumkin. Biroq bo'lajak o'quvchining kasbiy fikrlashi uchun maktabda kichikintoylar bilan olib boriladigan korreksion pedagogikaning ruhiy muvozanatli, prinsip jihatdan ular ruhiyatiga jarohat yetkazmaslik muhimdir. Bunga qo'shimcha ravishda o'quvchining kichik maktab o'quvchilari bilan bo'ladigan korreksiyasida o'zaro ziddiyatsiz munosabatga oid yana bir xulosani qo'shish joizdir. Bu har bir o'quvchining bo'lajak korreksiyada o'z oldiga maqsad qo'ya bilishi va o'z kasbiy pedagogik faoliyati modelini yuqorida tilga olingan o'quvchilar namunasida qura bilishi bilan bog'liq xulosadir.

Maktab o'quvchilari xotirasida uzoq muddat hatto ki butun umr davomida saqlanib qoluvchi nizoli vaziyatlarni yoritishga urinib ko'ramiz. Konfliktlarga oid faktografik ma'lumotlarni ilmiy qayta ishlash natijasida umumiy ta'limning birinchi bosqichida yuz beruvchi konfliktli vaziyatlarga bir necha tomondan yondashish mumkin bo'ladi. Konfliktli – nizoli hodisalarning butun manzarasini ko'z oldimizga keltirishimiz uchun quyidagi bir guruh faktlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi:

konfliktida qatnashuvchilar haqida ma'lumot, konfliktli vaziyatlar, ularning ssenariysi mohiyati haqidagi ma'lumotlar. Uning oqibatlar haqidagi ma'lumotlar ham shunga mansubdir.

1. Didaktik xarakterdagi konfliktlar.

Asabiy/ashituvchi voqea – hodisalar rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitishda mohiyat jihatdan unchalik ko'p emas. O'quvchi – o'quvchi munosabatida 3 guruh o'zaro munosabat yetakchi o'rin tutadi, qaysikim bu holda o'quvchilar ruhiy shikastlanishi mumkin. Ular darsda emas, balki o'quvchining o'quvchi bilan qiladigan muomalasi, takikasi, uslub, o'quvchi qilmishidan g'azablanish kabilar aks etadi. Rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarga intizomiy usullar eng kuchli ravishda ta'sir ko'rsatadi. Bunday usullarning qo'llanishiga doir o'ziga xos misollarni keltirish mumkin.

- Hamma o'quvchilar shovqin ko'tarmogda, sinfdan esa faqat bir o'quvchi chiqarib yuborildi.
- O'quvchilarning ota – onasi bilan o'zlashtirish yuzasidan suhbat o'tkazish maqsadida o'quvchi ularning bosh kiyimi yoki portfelini olib qo'yadi.
- Parta orqasida tik turishga arzimagan aybi uchun majbur qiladi.

- Sababini so'ramasdan qiz bolani kechikkani uchun qizartiradi, uyaltiradi. Sinfda tartibni ikki o'quvchi buzsa, ularning faqat biri jazolanadi, o'quvchiga yogmagani uchun.

- Yangi kelgan o'quvchi ehtiyotsizlik qilib deraza oynasini sindiradi, buning uchun bir o'quvchi unga intizomsizlik tamg'asini bosadi.

- Sinfda o'quvchi sumkasidan pul yo'qoladi, yoppasiga tintuv o'tkaziladi, vaholanki pulni hech kim o'g'irlagan emas.

- Butun sinf bo'yicha she'r yodlamagan, o'quvchi barcha o'quvchilarni kiyinib, ota – onalarini chagirish uchun yuboradi.

- Sinfda sho'xlik qilgan o'quvchilarning bahosini pasaytiradi.

- O'quvchilarni "tur – o'tir" qabilda darsdan axloqi uchun jazolaydi, biroq bu o'quvchilarni intizomli qilib qo'ymaydi.

- Shanbalik paytida o'quvchilar yaxshi ishlashdi. Lekin shishani sindirishdi. Yaxshi tomonlar hisobga olinmasdan butun sinf o'quvchilariga direktor va o'qituvchi hayfsan e'lon qiladi.

- O'qituvchi dafardan xato topgach, uni yitirib tashlaydi va nima uchun shunday qilganini sharhlaydi ham.

- O'qituvchi o'quvchini sinfdan haydab chiqarmogchi bo'ladi, biroq u buni xohlamaydi, o'qituvchi g'azablanib, asabiy ravishda buni sharhlaydi.

- Ikki guruh o'quvchilarning nima uchun bahslashayotganligini surishtirib o'tirmay, har ikkalasini jazolaydi, vaholanki tomonlardan biri mulqo haq edi.

- O'g'il va qiz bolani boshqa – boshqa partaga o'tqazadi va buni bular yaxshi o'qishni o'rgansin, bir – biri bilan bunday yaqin o'tirgancha, deb izohlaydi.

- O'quvchini butun sinf oldida ikki soat davomida burchakda tik turishga majbur qiladi.

- Darg'azab o'qituvchi o'quvchi qo'lidan ruchkani olib, polga uloqtiradi.

- O'quvchi tirishqoq emasligini bahona qilib, u bilan ishlashdan bosh tortadi.

- O'quvchini nazorat ishidan sababsiz (yoningdagiga aytib turing deb) haydab yuboradi. O'quvchini haydar ekan, orqasidan portfelini olib yuboradi.

Amaliyotdan olinadigan har bir voqecada konfliktida bo'lganlar hamda bunday konflikt guvohlari mavjud. O'ylash mumkinki, bolalar va ular ustozlari orasida yuz beruvchi to'qnashuvlar asabiylashuv natijasi bo'lib, bular bir xil oqibatlar bilan tugamaydi. To'qnashuvchi tomonlar o'ta asabiylashadilar, ayniqsa maktab o'quvchilari ko'proq iztirob chekishadi. Guvohlarga kelganda esa, ularning munosabatlari har xil bo'lishi mumkin.

Konfliktogen vaziyatlarning ikkinchi guruhini boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar qilmishi tashkil etadi, buni o'quvchilarga nisbatan "diskriminatsiya" deb atash mumkin. Ularning shakli ko'p emas. Shuning uchun ham boshlovchi o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida o'ziga – o'zi man qilish kabi himoya to'sig'idan foydalanishi mumkin. Kuzatishlar natijasida o'qituvchilar tomonidan

o'quvchilarni "ezish"ga asoslangan korreksiya shakli yashovchandir. Buni bilish ayniqsa bolalar ruhiyatini jarohatlardan saqlamogchi bo'lgan o'qituvchilar uchun juda muhimdir. Quyida amaliyotdan olingan ayrim misollarni keltiramiz:

- A'lochilarga topshiriq berishadi. Boshqalar esa ularning muvaffaqiyatli faoliyatini kuzatuvchilardir.

- Bolalarni qobiliyati va qobiliyatsizlarga bo'lishadi. Bu haqda butun o'quvchilarga ochiq aytiladi. Qobiliyatsizlarga ikkinchi yilga qoldirish bilan tahdid qilishadi.

- O'quvchilarning bir qismini ismi bilan atashadi, boshqalarni esa familiyasi bilan, bu bilan o'zining mazkur bolalarni yoqtirmasliklarini ta'kidlamogchi bo'lishadi.

- A'lochi va intizomli o'quvchilarni haddan tashqari maqtay yuborishadi.

- A'lochi bilan oddiy o'quvchi janjallashib qolgudek bo'lsa, a'lochini emas, oddiy o'quvchini jazolashadi.

- Darsdan tashqari paytlarda ko'proq a'lochi va yaxshi o'quvchilar bilan suhbatlashishadi.

- A'lochi o'quvchi bilan qoloq o'quvchini yonma – yon qo'yib, bo'ng'gilarga tumanli kelajak bashorat qilishadi.

- A'lochi o'quvchi darsga yaxshi tayyorlanmaganida unga rahm-shafqat ko'rsatishadi, boshqalarni esa xuddi shunday qilmishi uchun jazolashadi.

- A'lochilarga rasmdan yaxshi o'zlashtirmagan paytda ham a'lo baho qo'yishadi.

- Ochiq bo'lmasa-da yaxshi o'qiydiganlarga mehribona munosabatda bo'lishadi, qolgan o'quvchilar esa, pedagogik mehdan mahrum bo'lishadi.

- O'qituvchilarning bolalarini alohida qo'llab – quvvatlashadi.

- Ko'rish qobiliyati kuchsiz bo'lgan o'quvchini oldingi partaga o'tqazishdi, bu o'quvchini sezilarli darajada tutaqiradi. Ko'rinadiki, u bu o'quvchi bilan ishlamogchi emas. O'qituvchining simpatiyasi va antisimpatiyasiga sazovor bo'lgan o'quvchilar bilan munosabada o'rta yo'l topish juda qiyin. A.S.Makarenko o'quvchilarga nisbatan "barovar ovoz"da bo'lish taktikasiga qarshi chiqqan edi. Shu bilan birga, o'quvchilar bilan munosabatda individual yondashishni ham

rad etib bo'lmaydi. O'quvchilarning qobiliyati, mehnatsevarlik, xarakter, tashqi qiyofasi, odobi va madaniyatiga qarab har xil munosabatlarda bo'lish kasbiy pedagogik jihatdan tabiiy hisoblanadi.

Konfliktlarning uchinchi guruhiga rivojlanishda nuqsoni bor o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash natijasida paydo bo'ladigan nizolarni kiritish mumkin.

Talaba bu haqda maktab amaliyotiغا tayyorlanayotgan paytdayoq o'ylab ko'rishi, bu haqda o'z takikasini ishlab chiqishi lozim.

Darsda o'qituvchi tomonidan baho qo'yilganda qanday sabablar o'quvchilarning asabiylashuvi, noroziligiga sabab bo'ladi?

- Baholashda ikkiyuzlamachilik sodir bo'lsa: daftarda baho "3", jurnalda esa "4".

- Og'zaki va yozma ishlar adolatsizlaricha baholanadi.

- Ota – onalar iltimosi, tanish – bilishchilik sababi baholar ko'tarilib qo'yiladi.

- Yangi kelgan o'quvchilarga o'zining talabchanligini namoyish etish maqsadida ataylab past baho qo'yiladi.

- Javoblarga talablar ham bir xil emas. Ko'pincha bu o'qituvchining kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

- Oldin qo'yilgan "5" baho keyingi baho qo'yilishiga ta'sir etadi.

- Uy vazifasini bajarishdagi tirishqoqlik hisobga olinmaydi.

- Hali o'rgatilmagan narsani chiza olmaganligi uchun "2" qo'yiladi.

- Yozuvning iflosligi uchun yaxshi yozilgan nazorat ishinin bahosini tushirishadi. O'quvchi hayron: nega to'g'ri bajargan ishiga past baho qo'yishdi?

- Bir xil xatolarga yo'l qo'yilgan diktantlarga turlicha baho qo'yishadi. O'quvchilar o'qituvchining o'z "erkatoy"lari bor degan xulosaga kelishadi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, o'quvchilar bilimini baholashda bir qancha tushunmovchiliklar ham mavjud. Ulardan biri – bu ayniqsa, gumanitar fanlardan baholashda qat'iy bir xato mezonlarining yo'qligidir. Bunga qo'shimcha ravishda, o'qituv-

chining kasbiy tayyorgarlik darajasi, kayfiyati va hokazolarni kiritish mumkin. Nihoyat, baholashdan:

Tete a – tete qabilida yuz beruvchi konfliktlar chuqurigi jihatdan kuchli ziddiyat hisobalanadi. Bu o'rinda ham o'qituvchi tomonidan jo'rttaga sodir qilinadigan konfliktlar hamda birinchi qurashda tushunmovchilikka o'xshash ziddiyatlar mavjud. Misollarga murojaat qilaylik.

O'smir kechqurun elektr larmog'ini o'chiradi va direktorga qasddan ikki – uch kun dars qoldiradi. O'quvchi kundalik daftariidagi o'qituvchi izohini o'zgartirdi va buning uchun ota – onasi va direktordan tanbeh eshildi. O'quvchilar bir – birlariga sinf lattasini olishdi va latta maktab zavuchining boshiga kelib tushdi. Chaqimchi qizni sinf rahbariga gap tashigani uchun do'pposlashdi. Xor bo'lib ashula aytishga hamkorlikda qarshi chiqishdi. Qishda o'quvchini sinfdan haydashdi, u daryoga cho'kish uchun jo'nadi, uni tirik qaytarib kelishdi. Bazmda xohishiga qaramay ashula aytishga majbur qilishdi. Ko'ylagining rangi kulrang bo'lganligi uchun ikki qo'yishdi: maktabda hamma o'g'il bolalar oq ko'ylak kiyishi lozim edi. O'qituvchi g'azabga minganda o'tgan sana bilan bolaga salbiy baho qo'yadi.

O'quvchilardan biri o'qituvchining o'rindig'iga knopkani yuqoriga qilib qo'ydi, o'qituvchi va o'quvchilarni qo'rqtirish uchun ilonni olib kelishdi, o'qituvchining ko'ylagiga rang sachratishdi, derazani sindirishdi...

Tarbiyasi og'ir bolalarning bunday qilmishlariga turlicha munosabat bildirish mumkin. Tavsiflangan qilmishlarni kuchli ziddiyat tug'diruvchi faktorlar sirasiga kiritish qiyin. Biroq shunday bo'lsa ham talabning bunday vaziyatlarda o'zini qanday tutishi maktab o'qituvchisi sifatida oldindan ssenariya tuzish orqali hal etilishi qiyin muammodir.

2. Didaktik hamkorlik sohasida yuz beruvchi konfliktlar.

Nisbatan katta xafagarchilikka sabab bo'ladigan ziddiyatlardan tashqari o'qituvchi va o'quvchilar uchun kuchli ruhiy jarohat yetkazuvchi konfliktlar ham mavjuddir. Bularga didaktik xatolarga, muhimni, o'quvchilar bilim, ko'nikmalarini baholash metodikasida yo'l qo'yiladigan xatoliklarni kiritish mumkin.

Bunda faqatgina ayrim ijobiy natijalar kuzatiladi — o'quv ishida erishilgan muvaffaqiyatlar, umumiy tartib-intizomning barqarorlashuvi, salbiy odatlarning barham topishi kabilarni kuzatish mumkin. Konfliktlarning xilma-xil oqibatlari bolalarning maktabdagi va maktabdan tashqari faoliyatida yaqqol iz qoldiradi. Shunday faktlar aniqlandiki, ziddiyatlardan so'ng o'zlashtirish, xulq — atvor baholarining pasayishi, o'quvchiga bo'lgan ishonchning pasayishi, uzoqqa cho'ziluvcchan arazlashlar, o'quvchi qilmishining adolat-sizligini tushunish, o'quvchi obro'sining o'quvchi nazariida tushishi, xulq — atvorning iktilangan uslubining vujudga kelishi, ya'ni xo'jako'rsinga, o'quvchi tazyiqidan qutulish uchun harakat qilish va noqulay vaziyatlardan qutulishga harakat qilish kuzatiladi. O'quvchilar taqdirini hal qiluvchi konfliktlar orasida quyidagilar ajralib turadi: boshqa maktabga o'tkazish, maxsus maktab va axloq tuzatish bolalar muassasasiga yo'llanma berish. O'quvchilar xulq — atvorida ham ziddiyatlar aks etadi. Bu hol o'quvchining nazokatsizligi chegaradan chiqib ketgan paytda o'ta — onalarning bu haqda qo'rqmasdan maktab rahbariyatiga hamda o'quvchining tikka yuziga aytilishlarida namoyon bo'ladi. Konfliktli vaziyatlarning iktilamchi zarari kuzatiladi: o'quvchilar va o'quvchisining kayfiyati masalasida. Nihoyat munosabatlarning ikti tomonlama o'zgarish holati vujudga kelishi kuzatiladi: agar ziddiyatdan so'ng yo'l qo'yilgan xatolar tomonlardan biri tomonidan anglab yetilgan bo'lsa, juda kam hollarda ziddiyatlar natijalari chuqurlashib ketishi, konflikt tug'diruvchi faktorlar yengib o'tilmasdan qolib ketishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy pozitsiyani shakllantirishda ularning axloqiy-pedagogik, tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o'rinda qayd etish mumkinki, o'quvchilarning ayrimlari o'z metodik zahiralarga ongli ravishda nazokatsizlik kabi salbiy odatni kiritib olganlar. Kichikintoylardan bunday salbiy munosabatga nisbatan o'rinni javob olmaganliklari uchun ham bunday o'quvchilar ana shunday salbiy odatlarga ko'nikib qolishgan.

O'quvchilarning ana shunday konflikt chaqiruvchi odatlari qatorida affekt oqibati hisoblanmish o'zini tuta olmaslik, portlashga, qiziqqonlikka moyillik, o'z-o'zini boshqarishning yetishmasligi

o'rin oladi. Bunda ko'p narsa o'quvchining kasbiy pedagogik madaniyatiga bog'liqdir. O'zining qaysi hollarda chegaradan chiqishi, qizishib ketishini ko'ra bilish va ruhiy zo'rliqlardan chiqib ketishning boshqariladigan ssenariysini ishlab chiqish muhimdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bolalar ruhiy jarohat olgach, uning natijasida ahyon — ahyondagina ro'yobga chiqishi mumkin, bu hol ko'zga tashlanadigan qo'zg'alishlar shaklida kuzatilishi mumkin.

Qanaqa qadriyatlar o'quvchi qiyofasida bolalar ruhiyatini jarohatlashning oldini oluvchi, konfliktlarni og'riqsiz bartaraf etish texnikasini shakllantiruvchi bilimlar mavjud ekanligini qayd etish joiz. Amaliy psixologiya o'quvchining axloqiy madaniyatiga doir nazariy g'oyalar insonning inson tomonidan tushunish konsepsiyasiga asoslanadi. Bunda hammadan oldin insonlararo sub'yektiv yondashuvda o'zaro bir-birini tushunishga intilish muhim ahamiyatga ega. Sub'yekt — sub'yekt yondashuvda o'quvchining vaziyatni to'g'ri anglash qobiliyati va bu holning o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga erishish lozim. Treninqli ssenariylarda u yoki bu rollarni amaliy mashg'ulotlar paytida ijro etish orqali pedagogik etkaga amal qilishni muvaffaqiyatli shakllantirishga erishish mumkin.

3. Chegaradan chiquvchi etik (axloqiy) konfliktlar.

Mazkur "Chegaradan chiquvchi etik" konfliktlar terminini boshlang'ich sinf o'quvchilari xulq — odobida namoyon bo'luvchi qo'pol g'ayripedagogik munosabat shakllarini aniqlashda qo'llaniladi.

Yuqorida biz pedagoglar nazokatsizligiga oid qo'quv hosil qiluvchi faktorlarni kechirarli deb hisoblashimiz mumkin, chunki inson sifatida o'quvchi ham o'zini yo'qotib qo'yishga haqli. Shu bilan birga, o'quvchi muomalasida yumshoqlik, bir holatdan ikkinchi ruhiy holatga o'ta bilish, rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar emosional holatini boshqara bilish muhim ahamiyatga ega. Katta yoshdagilar bilan kichik yoshdagi o'quvchilar orasida yuz beruvchi "qonunbuzarlik" tufayli o'quvchi va o'quvchi orasida yuz beruvchi konfliktlar ham mavjud.

Ta'kidlash joizki chegaradan chiquvchi axloqiy konfliktlar o'qituvchi bilan kichik o'quvchilar orasida yuz beruvchi ziddiyatlar orasida eng oxirgi o'rinni egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich maktab bu sohada katta sinflarga qaraganda ancha kam zarar ko'radi. Shunga qaramasdan, bu yoshdagi o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan ruhiy jarohat ancha zalvorlidir. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan sodir qilinadigan qonunbuzarliklar ikki xildir. Oldingi o'ringa hammaning oldida ochiqchasiga og'zaki haqorat qilish turadi. Bunga qarshi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida tegishli modda mavjud (140-modd), unga binoan ochiq og'zaki haqorat qilgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Kichikintoylarni haqorat qilish lug'ati tarbiyasi og'ir bolalarga nisbatan unchalik rang-barang emas. O'qituvchi tomonidan sodir qilinadigan haqoratlar kattalar ko'tara olmaydigan darajada xunuk: "axmoq", "to'nka", "bo'chka", "cho'chqa", "seviz qurt", "bir xalla go'sht", "tentak", "devona", "eshshak", "po'stak", "do'ng peshona", "kallavaram" ... va hokazo.

Nihoyat, o'qituvchilar tomonidan sodir qilinadigan qonunbuzarlikka o'quvchi ota – onasidan sovg'a – salom undirish, bahoni oshirib qo'yish, ota – onasi savdo sohasida ishlovchi o'quvchilarni u yoki bu noyob tovarni topib kelishga majbur qilish va h.k.lar kiradi. O'qituvchilar tomonidan ruhiy zo'riqishga sabab bo'luvchi yana shunday misollar keltirish mumkinki, bunga tabiiy ehtiyoji tufayli sinfdan chiqishga ijozat so'ragan o'quvchiga qo'pollik bilan rad javobini berish. Parta joyini ho'llab qo'ygan o'quvchini ustidan kulish, jismoniy nuqsoni bor o'quvchini o'ynashga majbur qilish, maktabdan haydash bilan qo'rqitish, bolani qichqirib hushdan ketkazish kabilarni keltirish mumkin. Zulmkorlik ko'rinishga bola salomatligidan bexabar holda unga tajovuzkorli munosabatda bo'lish kabilarni ham ko'rish mumkin. Ruhiy zo'riqtirish faktorlar orasida o'qituvchining pedagogik uquvsizligi, qo'polligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqini zo'riqishsiz boshqarish, tuzatishning yo'qligi uchraydi. O'qituvchi o'quvchi qizni o'zini tuta olmaslikda ayblab urishadi, uning yonida turgan o'qituvchilar esa qizning yonini olib uni maqtashadi. Sinf o'quvchilari oldida maktab zavuchi va

o'qituvchi bolalarni boshqa sinfga "o'tkazish" haqida gapirishadi. Bu hol o'quvchilarning isyon ko'tarishiga olib keladi.... Yosh o'qituvchi ayol qizchani yuqimtoy otasini tez – tez maktabga chaqira boshlaydi. Ular orasida sevgi mojarosi boshlandi. Oqibatda o'qituvchi ayol boshqa shaharga ko'chishga majbur bo'ladi, o'quvchi qizchani esa boshqa maktabga o'tkazishadi... O'qituvchi boshiga tushgan bu baxtsizlik uning o'quvchiga bo'lgan munosabatini keskin o'zgartirib yuboradi... Maktab ma'muriyati o'qituvchilarning qanday qilib ashula, rasn, jismoniy madaniyat darslarini matematika, chiroyli yozuv, rus tili bilan olinashitirganlarini payqashmaydi...

Biz yuqorida umumiy o'rita ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari orasida yuz beruvchi ruhiy zo'riqishga doir vaziyatlarni ko'rib chiqdik. Pedagogika fani hozirgacha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qituvchi aybi bilan yuz beruvchi ruhiy zo'riqishi chuqurligini o'lchash metodlariga ega emas. Muammoning murakkabligi shundan iboratki, kichikintoylar maktabga muayyan hayotiy tajribaga ega bo'lgan holda qadam qo'yishadi, bu tajriba oiladayoq, maktabgacha ta'lim muassasasidayoq tarkib topgan bo'ladi. Agar uyda bolaga jismoniy ta'sir ko'rsatish odat bo'lgan bo'lsa, u maktabda o'qituvchi axloqidagi bunday odatlarga nisbatan unchalik qarama-qarshilikka uchramaydi. Biroq oilada qattiq jismoniy jazolashlarga duch kelmagan kichikintoy o'qituvchining jismoniy kuch ishlatishiga bardosh berolmaydi. Bolada kattalarning haqorati munosabatlariga nisbatan qat'iy norozilik shakllanadi.

Endi talab rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasida yuz beruvchi ruhiy jarohatlanish sabablari, illalari va og'irligi bilan tanishar ekan, har bir o'qituvchi o'z oldiga bolaga "zarar yetkazma" degan kasbiy kodeksga amal qilishi lozimligiga tushunib yetadi.

Nazorat uchun savollar

1. Rivojlanishi va xulqida cheklanishlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug'ullanadi?
2. Korreksion pedagogikaning vazifasi nimadan iborat?

3. «Korreksiya». «korreksion pedagogik faoliyat» tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
4. Anomal o'quvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
5. Korreksion pedagogika (defektologiya) fanning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. «Rivojlanishdagi chetlanishlar» tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
7. Aqli zaif bolalar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?

“PEDAGOGIK MAHORAT”

5-MAVZU: PEDAGOGIK MAHORATNING UMUMIY ASOSLARI

REJA:

1. O'qituvchilik kasbining ijtimoiy-tarixiy rivoji va jamiyatdagi o'rni.
2. Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir.
3. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik.
4. Pedagogik madaniyat
5. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy, siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablar, o'qituvchilik kasbi, shaxsiy va kasbiy sifatlار, pedagogik mahorat, individuallik, novatorlik, pedagogik texnologiya.

Inson paydo bo'lgandan beri tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan buyon o'qituvchilik-pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmogda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharafti va o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta'lim va tarbiya ishlariining qay yo'sinda olib borilishiga bog'liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog'liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahorati, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmasligimiz lozim. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi, shunday ekan:



Barkamol avlodni har tomonlana yetuk tarbiyalashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy, siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «...hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga

oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz».

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarining maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo o'qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Zero, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog'lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim omildir.

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889-1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benhoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qisiga erishganligining yaqqol dalilidir. 1988 yil YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga «Makarenko yili» deb e'lon qilindi.

A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalk davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganish zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: «Nima uchun oliy texnik o'quv yurtlarida materiallar qarshiligi o'qitiladi-yu, pedagogik o'quv yurtlari tarbiya jarayonida, unga shaxsning qarshilik ko'rsatishi haqidagi fan o'qitilmaydi?»

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariyot va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979 yili «Pedagogik mahorat asoslari» fani yaratildi va u barcha oliy pedagogika o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu faning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham, fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik

mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va no'ng'lik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharaflı, murakkab, o'z o'rnida mas'uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni joylardagi hamma kasb-hunar, ilmiy, olim-fuzalolar narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson o'zida avvalo iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir.

Mahoratli o'qituvchi o'zini mahorat egasi sanasa u quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi zarurdir.

O'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yuritish zarurdir.

Mustaqil O'zbekistonimiz o'qituvchisi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy va kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi va ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.

O'qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har minutidan unumli foydalanishi zarur.

O'qituvchi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo'shib, o'z fanining metodikasini yaxshi bilimg'i lozim.

O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchi pedagogik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagogik odobi o'qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo'lib, u o'qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi mahorati oshadi.

O'qituvchi pedagogik mahoratiga va har tomonlama bilimiga ega bo'lishi kerak, chunki unga o'quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin. Va nihoyat o'qituvchida o'quvchiga xos bo'lgan qobiliyatlar mujassam etgan bo'lishi lozim. Shunday qilib, pedagogik mahorat - o'qituvchi shaxsiy va kasbiy sifatlarining

oynasi bo'lib, uning pedagogik-psixologik bilimlarining yig'indisidir. Yuksak pedagog mahorat egasi bo'lishi uchun:

A) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning kesishadigan o'quv fanlari bilan bog'liqligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

B) o'quv - tarbiya jarayonini aniq tashkil qilish uchun asoslik pedagogik-psixologik, metodik ma'lumotga ega bo'lishi;

V) o'quvchini, jamoani "ko'ra bilish", bolalar qiziqishi, intilishlari, ularda uchraydigan qiyinchiliklarni tushuntirish va o'z vaqtida anglay olishi, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter, xususiyati, qobiliyati, irodasini tushina bilish hamda ularga muvaffaqiyati ta'sir ko'rsatishning shakl, metod, vositalaridan xabardor bo'lish;

G) o'z shaxsiy sifatлари (tovushi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va h.k.)ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi lozim.

O'zbekistonda barkamol o'qituvchi-mutaxassislarni barkamol avlodini tayyorlash ko'p jihatdan bog'liq:

Pedagogik mahorat fanining vazifalari:

Pedagogik faoliyatga qobiliyati ijodkor, tadbirkor bo'lishi;

Milliy va umumiy ijodiy madaniyatni egallash;

Vatanga sadogati va uni istiqboli uchun vijdonan mehnat qilishi;

Pedagogika, psixologiya fanlarni nazariy asoslarini egallash va pedagogik mahoratni o'zida shakllantiradigan, izlanuvchan bo'lishi;

Kasbga muhabbat sabr toqati doimo maqsad sari intilishi shart.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «Pedagogik mahorat asoslari» fanining maqsadi talabalarda pedagogik jarayonni mustaqil, yuqori saviyada tashkil etish va o'z faoliyatida eng yuqori samadorlikka erishish malakalarini shakllantirish bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal etish, bo'lajak pedagog shaxsida ba'zi bir xislatlarni tarkib topirish bilan bog'liq:

- insonparvarlik xislatlarini rivojlantirish;
- kasbiy mustaqillik, ishechanlik, xissiy bargzorlik, o'z ishiga ijodiy yondoshish xislatlarini tarkib topirish;

- pedagogik takt va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;

- nutq texnikasini, o'z tovushi va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish.

Pedagogik mahorat- bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol topirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba o'ttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglati olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi».

Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;

– o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Inson tabiatining jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyogi va shaxsiy xulqiga ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa, pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijodiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarybiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, mulqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarybiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir muhit pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirilarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni bilim olishga qiziqitirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihaddan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-

harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmastlik lozim.

«**Pedagogik mahorat**» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. 1987-1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyadagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

Pedagogik mahorat (A.S.Belkin, V.I.Zagvyazinskiy, N.P.Lebednik, L.A.Zyazyun, T.F.Kuzina, N.V.Kuxarev, S.B.Yelkanov, A.K.Markova);

Pedagogik ijod (V.V.Belich, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, A.K.Markova, T.V.Frolova, T.Kaloshina, G.F.Poxmelkina, S.Yu.Stepanov);

Novatorlik (V.I.Zagvyazinskiy, A.K.Markova);

Kasbiy bilimdonlik (L.A.Zyazyun, N.P.Lebednik, A.K.Markova);

Faoliyat uslubi (A.K.Markova);

Innovatsion faoliyat (E.P.Morozov, P.I. Pidakasistiy, N.V.Yusufobekova);

Pedagogik texnologiya (N.Ye.Shurkova, V.Yu.Pityukov, A.Osipova);

Mahorat (N.V.Kuzmina, T.V.Frolova, T.Yu.Kaloshina, G.F.Poxmelkina, S.Yu.Stepanova).

Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega.

Turti muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta riflarda urg'u shaxsiga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

I.A.Zyazyun va N.A.Lebedniklar shaxsning sotsial yetukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar.

Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial yetuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

- *sotsial o'z-o'zini belgilash* - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;
- *sotsial faollik* — odamlar bilan ishlay olish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;
- *sotsial mas'uliyat* - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat komponentlari N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, I.A.Zyazyun, V.I.Zagvyazinskiy, G.I.Xozyainov, T.F.Kuzina, A.I.Myashenko, N.P.Lebednik, T.Noyner, Yu.K.Babanskiy, N.V.Kuxarevlarining tadqiqotlarida o'rganilgan. Ular pedagogik mahoratning asosiy yo'nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

- *reproduktiv (o'ta past)*;
- *moslashuvchan (past)*;

- *lokal (chegaralangan) - modellashtirish (o'rtacha qonigartli).*

Bu daraja talabalar bilan boladigan o'quv-tarbiya ishlarining ayrim yo'nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:

- *izchil modellashtirish* (yuqori). Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifarga erishiladi;

- *izchil modellashtirish* (oliy). Bunda, faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat namoyon bo'ladi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari izlanadi.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Tadqiqotchilar malaka deganda xatti-harakatlar tizimini uni amalga oshirish maqsadi va shart-sharoiti bilan muvofiq ravishda samarali bajarish imkoniyatini tushunadilar.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

- *loyihalash*;
- *konstruksiyalash*;
- *tashkilotchilik*;
- *mulqot*;
- *bilish va reflektivlik*.

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin).

Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi, pedagogik mahoratni kishining alohida holati - ya'ni uning kasbiy mashg'uloti keng ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi.

Pedagogik mahoratning asosi **pedagogik bilimdonlikdir**.

Pedagogik bilimdonlik, deganda, konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobiliyat va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni tagozo etadi:

- *odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy mulqatda bo'lish;*
- *fan sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga moslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;*
- *o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.*

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

- *shaxsga, insonga yo'nalganlik;*
- *pedagogik voqelikni izchil idrok etish;*
- *fan sohasiga yo'nalganlik;*
- *pedagogik texnologiyalarni egallash.*

Hozirgi ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:

- *bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil etish qobiliyati hamda unga va vatanimizdagi pedagogikaga integratsiyalasha olish;*

- *(o'z saqlashi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;*

- *o'z tajribalarini umumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.*

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik - bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiyaga qodirdir.

Refleksiya - fikrlashning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil etuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal model»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi.

Pedagogik muhitda o'qituvchi faoliyatini baholashda, odarda, **pedagogik madaniyat** termini qo'llanadi.

Pedagogik madaniyat kasbiy faoliyatning individual mazmuni bilan bog'lanadi.

Pedagogik bilimdonlik o'qituvchining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat faoliyat va munosabatlarga estetik shakl beradi.

Pedagogik faoliyat pedagogik madaniyat tushunchasi tahlili omili bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik madaniyat umuman madaniyatning namoyon bo'lishidir.

Madaniyat faoliyat jarayoni va natijasi o'laroq sub'yekting dunyo ob'yektlarini o'zlashtira borishdagi barcha xatti-harakatlarini qamrab oluvchi solisial hodisani bildiradi. Madaniyat inson yaratgan, shuningdek, qanday vosita va metod bilan yaratgan barcha hodisalarni o'zida birlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda, umuman madaniyatda bo'lganidek, predmet-hosila va texnik-texnologik jihatlar mavjud.

Pedagogik madaniyat bir qator tizim hosil qiluvchi unsurlarga ega. Ularga quyidagilar kiradi:

Pedagogik loyihalash madaniyati. U ob'yektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o'zaro nisbatlagan holda maqsadni to'g'ri tanlay olish, vazifalarni belgilab olish, ularning yechilish bosqichlarini rejalashtirish hamda zarur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya'ni favqulodda yangini yaratish, o'rnatilgan me'yorlar va namunalardan chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir.

Bilimlilik madaniyati. U pedagogik bilimlarning turli-tumani va pedagog tomonidan bu bilimlarni egallanishini bildiradi.

Dunyovqarash madaniyati. Uning darajasini aksariyat hollarda pedagog va o'qituvchining o'zaro munosabatlari jarayoni va natijalari belgilaydi.

Turi namunadagi dunyovqarashning mavjudligi, xususan, stixiyali, muntazam, ilmiy va mistik, irratsional, optimistik va pessimistik, dogmatik va tanqidiy, diniy, ateistik, ratsional va pedagogik faoliyat sub'yekting ham bir necha namunasi borligini taqozo qiladi.

Dunyovqarash madaniyati fan, falsafa, din kabi ma'naviy madaniyat unsurlari bilan tanishish chog'ida shakllanadi.

Pedagogik madaniyatning yana bir unsuri **fikrlash madaniyatidir.**

Fikrlash madaniyati ham kundalik hayot jarayonida odatdagi vositalar, ham maxsus vositalar (uning tarkibiga formal mantiqni o'rganish ham kiradi) da vujudga keladi.

His etish madaniyati. U insonlar oliy kechinmalarining keng uyg'unligi hosilasi bo'lib, ularsiz pedagogik jarayonda mulqotning bo'lishi mumkin emas.

Baholash madaniyati u yoki bu sabab va hodisalar bo'yicha axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy yoki falsafiy xarakterdagi malakali hukm chiqarish qobiliyatidir.

Mulqot madaniyati pedagogik madaniyatning eng muhim komponenti bo'lib, u pedagogning o'quvchilar, ota-onalar hamda rahbariyat yoki quyi vazifa egallovchi shaxslar, shuningdek, pedagogik ish doirasidan tashqaridagi barcha insonlar bilan mulqot qilish madaniyatlarini qamrab oladi.

Tashkiliy madaniyat ham pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o'qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida (jamiyatda, o'quv yurtlarida, bolalar guruhlarida) tashkil etish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- har bir o'quvchi uchun dolzarb bo'lgan hayotiy mazmun rivojlanishini, o'quvchining shu rivojlanish kesmasida, harakat qila olishida, uning hayot mazmunining ochilishi va amalga oshishida o'qituvchi qanday bilim bilan unga yordam ko'rsata olishini bila olish» qobiliyati;

- ayrim o'quvchilar rivojlanish mazmuni va kesmasi integratsiyasi hisoblangan hamda jonli organizm sifatida o'quvchilar (sinf va b.) guruhini uning rivojlanish va mazmun kash eta borish jarayonida «ko'ra olish» qobiliyati;

- sinfning integral mazmuni va integral rivojlanish kesmasini idrok etish malakasi;

- o'zining organizmini yuksak darajada anglash. Sinf, o'quvchi o'z istaklari, motivlari, afzal ko'rishi jihatidan ular uchun zarur bo'lgan haqiqiy axborotlarni ajrata olish malakasi;

- shaxsiy xususiyatlar oqibati sifatida vujudga keladigan turli buzilish vaziyatlaridan idrokni chalg'itish;

- o'z sezgilarining nozik farqlanish imkoniyatlari vositasida yuqori his bilan boshqarish;

- keng boshqaruv repertuari, boshqarishning xilma-xil uslublari, axborotlarni uzatish «qurollari»: ovoz, xatti-harakat, mimika va boshqalarni egallash;

- kasbiy usullar va metodlarning keng jamg'armasi;

• *metodologiyani egallash.*

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi;

mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (mulohotaga moyillik, ishqonlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish));

pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam usasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;

maxsus fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;

pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazish;

o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatlarda bo'lish;

o'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli,

shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlarga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatarga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning yetti ta jihati ni ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlardan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillash-tirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Mulohot qilish (kommunikativ) qobiliyati. *O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijodiy ruhiy iqlim yaratadi.*

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: *Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishda namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*

3. Eshitish va his qilish qobiliyati. *Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevisadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevis-tinlaydi.*

4. Kinestetik (teri-musku) qobiliyat. *O'qituvchining o'z xatti-harakatlarini muvofiqdastirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtini harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yaratadi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.*

5. Mantiqiy qobiliyat. *Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevasi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi.*

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyligi, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyati o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ifrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiriti oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim - bu ilmiy mutotalar natijasidir, qobiliyat esa, insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashtirish va rivojlanib boradi.

Pedagogik-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarimas irsiyat" nasldan - naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatari** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos belgilari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamadan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyati ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro mulqotida, ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, mulqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qabdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini mugobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan mulqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish

qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlarga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining o'quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko'ra olishi.

Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligi va uddaburonligi, voqea va hodisalarni chuqur idrok etib, ularga adolati munosabarda bo'lishi.

Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik - ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu - individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilishi demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega.

Qobiliyatning **yetakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmagan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.

Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rta va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilar yordamchi rol o'ynaydi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;

• aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy imlatziya ishlati olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish;

- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

6-MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA HAQIDA TUSHUNCHA

REJA:

1. Pedagogik texnika haqida ma'lumot.
2. Pedagogik texnikaning namoyon bo'lish xususiyatlari.
3. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Tayanch so'zlar: Pedagogik texnika, texnika, nutq texnikasi, mimika, pantomimika.

ПЕДАГОГИК ТЕХНИКА ХАКИДА МАЪЛУМОТ

Pedagogik texnika – o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy

pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabildir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmogda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatleri va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-

tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuv-ehsanlik, xayol) egaligi;

- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rni qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik mulqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi ob'yektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishda aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'qilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyok, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

**Pedagogik texnikaning
namoyon bo'lish xususiyatlari**

O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlardan biridir. Har qanday insonning tashqi

ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmastik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosqichlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh jiboy, xoh salbiy xati-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini yengishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki ishtizoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Pantomimika — bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy fikrni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarning holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarning bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralar ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, e'lashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarda namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi dardor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida

tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqlardan o'zini saqlay oladi.

Gavda tutish estetikasi oldinga-orqaga tebranish, og'irlikni bir oyogdan ikkinchi oyogga o'tkazib turish, stul suyanchig'iga tayanib turish, boshni qashlash, burumni artish, quloq kavlash kabi zararli odatlarga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchi gavdasining harakati chegarali va bosiq bo'lishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlardan ho'li bo'lishi shart.

Mimika - yuz muskullari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O'qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba'zan o'quvchilarga so'zdan ham qattiqroq ta'sir ko'rsatadi. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtaroq o'zlashtirishini ta'minlaydi. O'quvchilar o'qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan uqib oladilar. Shuning uchun ham o'qituvchining yuzi uning sezgirligini ifodalashi bilan birga ularni yashirib turishi ham lozim. Oila tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni o'qituvchi o'zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Yuz ifodasi va harakatlari faqat dars maqsadiga, o'quv-tarbiyaviy ishini yaxshilashga yo'naltirilishi lozim. Yuz ifodasida ko'zlar muhim o'rin tutadi. Jozibasiz ko'zlar ma'nosiz qalbni aks ettiradi. O'qituvchi yuz muskullari va ko'zlarini tez-tez harakatlantirish bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi lozim. O'qituvchi nigohi o'quvchilarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish kontaktini vujudga keltirishi zarur, barcha o'quvchilarni diqqat markazida ushlab turishga intilishi lozim.

Mimik harakatlari, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchilarga

ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-tarbiya qonuniyatlarga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqdash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, iktilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozidagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Inson his tuyg'ulari uning yuzida - yuz mushaklarini qisqarishi va bo'shashishi natijasida - namoyon bo'ladi. Yuz mushaklari holatini boshqarish unchalik qiyin bo'lmaganligi uchun odamlar haqiqiy hislarini yashirishga ham urinadilar.

Yuz mushaklari harakatlari simmetrikligi ushbu insonning namumiyatidan dalolat beradi. Inson so'zlarida qanchalik yolg'onni ko'p qo'shsa, simmetriya shunchalik buziladi.

Haqiqatni bildiruvchi mimika juda tez, sezdirmasdan namoyon bo'lishi mumkin va uni to'g'ri talqin qilish uchun tajriba yoki hattoiki maxsus trenirovka kerak. Yana bir xususiyat: ijobiy hissiyotlar salbiyga qaraganda osonroq anglanadi.

Ayniqsa, inson lablari hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi (masalan, lablarni tishlash - hayajonni, bir tomonga qiyshaygan lablar ishonqiramaslik yoki istehzoni anglatishi mumkin)

Tabassum odatda do'stona munosabat yoki qo'llab quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Erkak kishi uchun tabassum u har qanday vaziyatda ham o'zini tuta olishini namoyish qilishi bo'lsa, ayol tabassumi ko'proq haqiqiy kayfiyatini bildiradi.

Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba'zi turlarini hisobga olish maqsadga muvofiq:

- 1) ortiqcha ko'p jilmayish - qo'llab quvvatlanishga ehtiyoji;
- 2) qiyshiq kulish - nazorat qilinayotgan asabiylilik;
- 3) ko'tarilgan qoshlar va tabassum - bo'ysunishga tayyorlik;
- 4) pastga tushirilgan qoshlar va tabassum - o'zini katta olish;

5) tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko'tarilmasligi – samimiyatsizlik;

6) tabassum bilan bir paytda ko'zlarning olayishi – qo'rqitish.

Turti hislar kechirayotganda yuz mimikasini bilish faqatgina boshqalarni tushunishdagina emas, balki o'z imitatsiya mahoratini o'stirish uchun ham zarurdir.

Odanning ichki kechinmalari haqida eng to'g'ri ma'lumotni ko'zlar namoyon qiladi:

1) ko'zning odatiy ifodasidagi o'zgarish;

2) ko'zlarning beixtiyor harakatlari – hayajon, oriyat, yolg'on, qo'rquv, asabiylashuv;

3) yonib turgan nigoh – qizishish;

4) qotib qolgan nigoh – o'yga cho'kkanlik yoki holsizlik;

5) qorachig'ining kattarishi qiziqish va qabul qilinayotgan axborotdan, atrofda qilardan, taomdan va boshqa shunga o'xshash omillardan qoniqish his etayotganligi yoki qattiq og'riq: ma'lum dori-darmon yoki narkotik qabul qilganligi;

6) qorachig'ining kichrayishi – g'azablanish yoki ma'lum turdagi narkotiklarni qabul qilganligi va boshqalar.

Muloqot davomida ko'proq eshitayotgan odam subbatdoshi ko'ziga qarab turadi. Muloqotning umumiy vaqtining uchdan biridan kamroq vaqt ichida ko'zingizga qarab turgan insonning sizga nisbatan samimiyligiga shubhalaning; butun dialog davomida tikilib qarayotgan inson yoki sizga nisbatan katta qiziqish bildirmoqda yoki (agar qorachig'i kichraygan bo'lsa) uning sizga nisbatan adovati bor, yoki sizni o'ziga tobe qilmogchi.

Insonning ichki holati haqida uning statik holati ma'lumot berishi mumkin. Shunisi qiziqki, agar ma'lum bir turishlar (poza) inson uchun odatiy bo'lib qolgan bo'lsa bu uning xarakteridagi turg'un sifatlardan dalolat beradi.

Quyida bir necha pozaning psixologik nuqtai nazardan talqinini ko'rib chiqamiz:

1) qo'llar orqada, bosh yuqori ko'tarilgan, iyak oldinga surilgan – o'ziga ishonch, o'zini boshqalardan ustun qo'yish;

2) tananing yuqori qismi oldga intilgan, qo'llar belda – dadillik, o'ziga ishonch va faol harakatlarga tayyorligi, tajovuzkorlik, o'z fikrini oxirigacha himoya qilishlikka tayyorlik;

3) qo'llar bilan stol yoki stulga tayanish – subbatdoshi bilan to'la kontakt yo'qligi;

4) qo'llar tirsklar ochilgan holda bosh orgasida qovushgan – o'zini boshqalardan ustunligini his etish;

5) bosh barmoqlarini belbog' yoki cho'ntaklarga solib turish – tajovuz, o'ziga ishonganlikni ifodalaydi;

6) bosh barmog'ni cho'ntaklardan chiqargan holda turish – o'zini katta olishlik;

7) qo'l va oyoqlar almashtirilgan holda – subbatdoshiga nisbatan ishonqiramaslik va o'zini himoyalash;

8) qo'l va oyoqlar almashtirilmagan holda, pidjak tugmalari ochilgan – ishonish belgisi;

9) boshning chetga egilishi – qiziqish uyg'onganligi;

10) boshning quy'i egilganligi – salbiy munosabat;

11) boshning sal ortga egilganligi – tajovuz belgisi;

12) stul chetida o'tirish – har qaysi momentda turib ketishga tayyorgarlik: chiqib ketish uchun yoki harakat qilish uchun, o'ziga o'liborni qaratib, subbatga qo'shilish uchun yoki qizishgan inson o'zini qo'lida tutish uchun qilgan harakati.

Insonlar his-tuyg'ularini aniqlashda faqat beixtiyor qo'l harakatlari qiziqarliqdir. Har xil odamlarda bir xil qo'l harakatlari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ma'nosi o'xshash holatlar ham mavjud:

1) qo'llarning faol harakati – ko'pincha jiboyi emotsiyalar, do'stona munosabat va qiziqishni anglatadi;

2) ortiqcha qo'l harakati – hayajon, o'ziga ishonchsizlik belgisi;

3) katillar ochiq – ochiqlik ifodasi;

4) qo'llarni musht qilish – ichki qo'zg'alish, tajovuz;

5) so'zlayotganda og'izni qo'l bilan to'sish – hayron bo'lish / yolg'on so'zlash / subbatdoshiga ma'lumotni ishonib yetkazish;

6) so'zlayotganda burunga tegib turish – aytayotgan so'zlarga ishonqiramaslik / yolg'on / yangidan-yangi dalillar izlash;

7) qovog'ini barmoq bilan ishqalamoq – yolg'on / ishqonqira-maslik; so'zlayotganda yuzining turli qismlarini ishqalash – tashvish, uyalish, o'ziga ishqonmaslik;

8) iyagini silash – qaror qabul qilish;

9) qo'llarning beixtiyor ortiqcha harakatlanishi (biror narsani aylantirish, burash, kiyimining detallariga tegish) - ogohlik, asabiylashganlik, uyalish;

10) kiyim yog'asini tortish – yolg'oni oshkor bo'lganligini sezgan odam yoki g'azabdan havo yetishmasligi;

11) biror narsaga tayanishga bo'lgan intilish – vaziyatning murakkabligini his qilish, ushbu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini topa olmayotganligidan dalolat beradi.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari o'quvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson

o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shash-tiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembr bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilari va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodalari bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kasf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslida ko'rib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchilarning o'zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari

organi qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish organi qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy-metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natijalarda, nuq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'itrof etiladi. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlari to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuni o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmashlik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyovqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo'lar-bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqid, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni tinglovchilik yillarida o'zida tajribai o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallash, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turi artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi

tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulg-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10–14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual

dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, natfas olish va ovozning tabiiy bir holatga qo'yilishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bundan oldingi tarbiyaviy metodlarning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik harakatlarni bo'lishi mumkin.

Bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmog'da. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilinmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmashlik kerak.

?
NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning qanday tamoyillari mavjud?
3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Pedagogik texnikaning usul va vositalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yosh o'qituvchilar faoliyatida yo'l qo'yadigan pedagogik texnikaga doir xatolarni tahlil eting.
6. Mimika va pantomimikaning o'qituvchining pedagogik mahoratida tutgan o'rni qanday?
7. O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida qanday psixologik holatlar o'z aksini topadi?

TEST

1. **Pedagogik muomala nima?**
 - O'qituvchi notiqligi;
 - O'qituvchi ichki va tashqi madaniyadan kelib chiqqan holda o'zgarar bilan munosabati;
 - O'qituvchi hissiyotlarining namoyon bo'lishi;
 - Pedagogik kommunikativlik.
2. **Pedagogik texnika nima?**
 - Pedagogik usullar yig'indisi;
 - Muomalaning neverbal vositalari;
 - Nutq texnikasi;
 - Tarbiyaning asosiy vositalari.
3. **Ob'yektning sub'yektga aylanish jarayoni**
 - O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro erkin fikrlashida sodir bo'ladi;
 - Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari;
 - Pedagogik texnikaning ob'yektida;
 - Pedagogik madaniyat va mehnatda yuz beradi.
4. **Tarbiyaning asosiy vositalari**
 - Mehnat, muomala, o'qish;
 - Muomala, so'zlashuv, mulqot;

- O'qish, bilim olish, yod olish;
- Mehnat, intilish, yod olish.

5. Pedagogik faoliyatning asosiy yetakchi qobiliyati nechta?

- 5 ta;
- 3 ta;
- 6 ta;
- 7 ta.

6. Pedagogik mahoratning elementi -

- Pedagogik mehnat;
- Pedagogik masala;
- Pedagogik texnika;
- Pedagogik qobiliyat.

7. Pedagogik faoliyatning komponentlari-

- Ob'yekt, sub'yekt;
- Maqsad, vazifa;
- Ob'yekt, sub'yekt, maqsad, vazifa;
- To'g'ri javob yo'q.

8. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qachon qabul qilingan?

- 1997 yil 29 dekabr;
- 1998 yil 29 yanvar;
- 1992 yil 21 mart;
- 1997 yil 29 avgustda.

9. Pedagogik madaniyat nima?

- O'qituvchining ichki madaniyati;
- O'qituvchining sog'lom turmush tarzi;
- O'qituvchi kiyinish madaniyati;
- Hamma javoblar to'g'ri.

10. Kommunikativlik bu,

- Uyuşuvchanlik;
- Kasbiy mahorat;
- Samimiylik;
- O'qituvchi usuli.

11. Pedagogik kreativlik nima?

- Oldindan aytib berish;
- Ijodkorlikka qobiliyat;
- Insoniylik;
- O'qituvchi vatanparvarligi.

12. Pedagogik hamkorlik tarkibida muhim o'rinda turuvchi ob'yektlar-

- Oila, maktab, kollej, universitet;
- Oila, mahalla, korxona;
- Oila va maktab fermer ho'jaligi;
- Maktab va oila-onaning ish joyi.

13. Pedagogik faoliyatda optimistik prognoz qanday jarayon hisoblanadi?

- Samimiylik;
- Ijodiylik;
- Oldindan aytib berish;
- Kasbga loqaydlik.

14. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari qaysilar?

- Maqsad, vazifa;
- Ob'yekt, sub'yekt;
- Maqsad va ob'yekt;
- A va B javob to'g'ri.

15. Pedagogik faoliyatda pertseptiv qobiliyat

- Kasbiy ziyraklik;
- Ijodkorlik;
- Ruxiy holat;
- Shaxsiy va pedagogik texnika qismi.

16. Texnika - ...

- Usullar yig'indisi;
- Ishontirish;
- Ta'sir etish;
- Qobiliyat.

17. Gepopeziya nima?

- Qiziqarli qarashlar;
- Uyguda chet tilini o'rganish;
- Uyguda ish qilish;
- Uyguda biror masalani hal qilish.

18. O'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabati necha xil uslubda ko'zga tashlanadi?

- Axborot uslub, demokratik, liberal;
- Demokratik, liberal uslub;
- Tabiiy, liberal, demokratik;
- Tabiiy, axborot, liberal.

19. Pedagogik mehnat ob'yekti nima?

- Aql, xis idrok;

122

- O'z-o'zini anglash;
- O'quvchi inson;
- Inson.

20. O'z-o'zini boshqarish usullaridan eng muhimlari

- Insonparvarlik;
- Ishonch, mas'uliyat;
- Samimiylik, kelajakka ishonch;
- Burch va huquq.

21. Diktatsiya...

- To'liq talaffuz qilish;
- Nafas olish;
- Ovoz bo'g'irligi;
- Ritmika.

22. Dars sifatini an'anaviy sxema bo'yicha aniqlash...

- So'rash tushuntirish;
- Mustahkamlash;
- Uyg'a vazifa;
- Barcha javoblar to'g'ri.

23. Hissiy bargarorlik nima?

- Irodaviy ta'sir ega qobiliyat;
- O'zini boshqarish;
- Oldindan aytib berish;
- Ijod qilish.

24. Pedagogik texnika o'z ichiga nechta komponentni oladi?

- 1 ta;
- 2ta;
- 3 ta;
- 4 ta.

25. Pedagog tashqi qiyofasi

- Emotsional holatni boshqarish, mimika, pantamimo;
- Pedagogik muomala;
- Pantamimo;
- Optimallik.

GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Pedagogika	Pedagogika – yosh avlodga	Pedagogy is the art or

123

	ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlari haqidagi fandir	science of teaching and educational methods
Metod	Metod – eng umumiy ma'noda maqsadga erishish yo'li, usuli	Metod – a way of doing something especially a systematic way
O'qitish metodi	O'qitish metodlari ta'lim maqsadiga erishishga doir usul va qoidalar yig'indisi	Teaching method – the principles and methods of instruction
Abstraktlash	Mavhumlashirish orqali nazariy umumlashmalar hosil qilishdan iborat ta'lim metodi	Abstraction in its main sense is a conceptual process by which general rules and concepts are derived from the usage and classification of specific examples, literal ("real" or "concrete") signifiers, first principles, or other methods.
Adaptatsiya	Yangi me'yor, an'ana va qadriyatlarni o'zlashtirish va interionizatsiyalash jarayoni	Training is aimed at employees who are assuming new management functions.
Akmeologiya	Insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o'rganadigan fan tarmog'i	Akmeology is a new direction of interdisciplinary researches of the person.
Pedagogik mahorat	Pedagogik jarayonni bilish, uni tashkili eta olish, harakatga kelitra olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgillovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi	It is an art of communicating a message with impact on audience.
Takt	Takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlari muvoziqlashtirish, tartibga solishni talab etadi	Tact is skill teaching general education subject
Pedagogik taktika	Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga bar-cha	Professional quality of the teacher, with which he, the student applies the most

	demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, mulotoqni inson-parvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'leho'i, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib topirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir.	effective means to influence education
Nutq	Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalardan foydalangan holda realitika aylanagan fikrdir	Manner of articulation describes how the tongue, lips, jaw, vocal cords, and other speech organs are involved in making a sound make contact.
Qobiliyat	Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida aks etadi	Possession of the qualities required to do something; necessary skill, competence, or power
Kommunikativ qobiliyat	O'qituvchining ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabati o'rnatilish ko'nikmasi	Communication skills are the key to developing (and keeping) friendships and to building a strong social support network.
Pedagogik artistizm	Pedagogik artistizm – pedagogik ijodkorlikning barcha bosqichlarida o'z aksini topuvchi voqelikdir.	Pedagogical artistry is the phenomenon functioning with varying degrees of activity in the process of pedagogical creativity

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: CHO'lpon, 2005.
2. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
3. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
4. Halasz G. Attracting, developing and retaining effective teachers. – Country note: Germany. – OECD, 2004.
5. Mavlonova R.A., To'rayeva O., Xolqberdiyev K.M. Pedagogika. Darslik T.: O'qituvchi 2008y.
6. Mavlonova A., Vohidova N.H., Raxmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.
7. Mavlonova R. va boshqalar "Ijtimoiy pedagogika" T.: Istiqol, 2009 y.
8. Xoshimov K., Ochilov S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T. O'qituvchi 2010-yil.
9. Curriculum cultural traditions and pedagogy understanding the work of teachers in England, France and Germany 2012-y.
10. Kieron Hutton. "Social pedagogy in UK". - Angliya. Russel House Publishing, -2013.
11. Egamberdieva N.M. «Ijtimoiy pedagogika» - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y.
12. Galaguzova M.A. Sotsialnaya pedagogika – M.: Vliados, 2000 g.
13. Istoriya sotsialnoy pedagogiki / Pod. red. M.A. Galaguzovoy – M.: Vliados, 2003 g.

MUNDARIJA

I. TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI	
Pedagogika fan sifatida. Didaktika asoslari. Ta'lim - tarbiya jarayonining mazmuni va mohiyati.....	5
II. PEDAGOGIKA TARIXI	
Pedagogika tarixi fan sifatida.....	26
Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.....	32
III. IJTIMOIY PEDAGOGIKA	
Ijtimoiy pedagogik faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida. Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Vasiylik va homiylik.....	35
IV. KORREKSION PEDAGOGIKA	
Korreksion pedagogika asoslari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.....	42
V. PEDAGOGIK MAHORAT	
Pedagogik mahorat fanining umumiy asoslari.....	87
Pedagogik texnika haqida tushuncha.....	106
Testlar.....	120
GLOSSARIY	124
ADABIYOTLAR RO'YXATI	127
MUNDARIJA	128

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1-FILIALI

126

S.X.GAYUROVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

O'quv qo'llanma

Toshkent – “Yangi chirchiq book” – 2023

Muharrir:	Xalimdjian Taxirov
Tex.muxarrir:	Temurmaliq Raxmatullayev
Musahhih:	Mavluda Yunusova
Sahifalovchi:	Usmanova Dildfuza

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 19.07.2022 y.

Bichimi 60x84 1/16, “Times new roman” garniturası. Kegli 12.

Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 1424013

Yangi chirchiq book MCHJda chop etildi.

Manzili: Toshkent viloyati Chirchiq shahar

Saodat ko'chasi